

OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TASHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

QURILISHNI BOSHQARISH FAKULTETI

“Informatika va informatsion texnologiyalar” kafedrası

“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlar bo'yicha prorektor

«__»____ 2012y.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

(Menejment yo'nallishi talabalari uchun)

1-qism

Toshkent 2012

MA'RUZA 1	“Informatika va axborot texnologiyalari” fani haqida umumiy tushuncha. Kompyuterning tarkibiy qismlari va ularning ishlash prinsiplari.
Mavzuni o'rgatish texnologiyasi.	
	Vaqt - 2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining ko'rinishi</i>	Kirish MA'RUZA - vizualizasiya
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Informatika va axborot texnologiyalari fanining maqsadi, vazifali. 2. Informatika va axborot texnologiyalari fanining taraqqiyoti va yo'nalishi. 3. Axborot tushunchasi, xossalari va axborotni o'lchash 4. Kompyuter tushunchasi. Kompyuterning umumiy tusilishi.. 5. Kompyuter sinflari, avlodlari, turlari. 6. Kompyuterlarning asosiy qismlari, ularning funksiyalari va vazifalari.. 7 Axborot texnologiyasining asosiy bosqichlari va rivojlanish tendensiyasi. .
<i>Darsning maqsadi:</i>	“Informatika va axborot texnologiyalari” kursini to'liq tushunish, uning predmeti, usuli, rivojlanish tarixi, masalalari, informasiya haqida tushunchaga ega bo'lish. Kompyuter tushunchasini to'liq yoritish, kompyuter turlari, kompyuter sinflari, mantiqiy sxemasini va avlodlarini o'rganish, kompyuterni asosiy qismlari va ularning funksiyalari , vazifalari bilan tanishish.
<i>Kalit so'zlar</i>	Informatika, axborot, bit, bayt, hardware, software, brainware, Kompyuter, xotira, prosessor, registr, trigger, bloknot,
<i>Adabiyotlar ro'yhati</i>	1. P.C. Асадуллина Информатика: Учебное пособие-Кувасай, 2000. 2. X.3. Икрамова Информатика: Учебное пособие-Ташкент, 2001. 3. X.3. Икрамова Конспект лекций по дисциплине «Информатика» -Ташкент, 2000. 4. С.В. Симонович и др. Специальная информатика: Учебное пособие-Москва, 2000
<i>O'qituvchining vazifasi:</i>	• Informatika tushunchasi bilan tanishtirish; • Informatikaning predmeti, usullari va masalalari haqida gapirib berish; • Informatikaning asosiy qismlari; • Axborot haqida tushuncha; • Axborot o'lchovlari va xossalari. • Kompyuter tushunchasi va mohiyati bilan tanishtirish; • Kompyuterning asosiy qismlari , ularning funksiyalari va vazifalari haqida aytib berish; • Kompyuterning mantiqiy sxemasini va turlarini tushuntirish
<i>O'qitish faoliyatining natijalari:</i>	Talaba majbur: • Informatika va uning rivojlanishi haqida tushuntirishi; • Informatikani asosiy qismini aytib berishi; • Informatika predmetini aytishi; • Axborotga ta'rif berishi; • Axborot xossalari va axborot o'lchov birliklarini sanab berishi; • Kompyuterga ta'rif berish. • Kompyuterni asosiy va qo'shimcha qurilmalarini aytib birirshi. • Kompyuterni mantiqiy sxemasini ko'rsatib berishini; • Kompyuter turlarini aytib berishni.; • Kompyuter avlodlarini sanab berishni.
<i>O'qitishning usuli va texnikasi</i>	MA'RUZA – vizualizasiya, texnika:, «parada o'yla-ishla», texnika «ha – yo'q»
<i>O'qitish qurollari</i>	Lazerli proyektor, vizual material, axborotli ta'minlash. Doska, mel, lazerli proyektor, axborotli ta'minlanish
<i>O'qitish sharoiti</i>	Kompyuter bilan ishlashga mo'ljallangan auditoriya

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Etaplar, vaqt	Faoliyat tarkibi	
	O'qituvchi	talaba
1 etap. Darsning kirish qismi (10 min.)	1. Mavzuni, maqsadni, darsninig rejalashtirilgan natijasini va uni o'tish rejasini ma'lum qiladilar. 2. Darsni o'tish yo'lini tushuntiradilar 1.Mavzu, maqsadni, o'quv mashg'ulotning mo'ljallangan natijani va uni o'tkazish rejasini e'lon qiladi. 3. Hisob grafik ishi mavzusini oladilar.	Eshitadilar, savollar beradilar
2 etap. Asosiy qism (60 min.)	1.Ma'ruza o'qiydi va uni ekranda matn ko'rinishda kor'satadi va izohlaydi., mundarijani varaqlaydiib Qo'shimcha axborotlarni to'liq konspektga to'ldirishni tavsiya qiladi. 2. Ommaviy analiz o'tkazadi. Savollar ustida o'ylashni taklif qiladi: Informatikaning rivojlanishi haqida kim qo'shimcha qiladi? Axborot va ma'lumot nima bilan farq qiladi? Hamma berilgan fikrlar doskaga yoziladi. 3. Shundan so'ng talabalar ikki guruhga bo'linadilar. Savollar beriladi. Har bir guruppa tayyorlanib, prezentasiya qiladi. Holat baholanadi. 4. Ma'ruza matni ekranda ko'rsatilib, o'qish davom etadi. O'ylab, quyidagi savollarga javob berishni taklif qiladi: Kompyuter nima? Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari nimalardan iborat?	Eshitadilar Konspektni to'ldiradilar O'z fikrlarini aytadilar Konspektni to'ldiradilar
III etap Xulosa (10 мин)	1.Material umumlashtiriladi va xulosa qilinadi. 2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beriladi : Informatikaning umumiy vazifasi tushuntirilsin . O'ylab, quyidagi savollarga javob berishni taklif qiladi: Kompyuter nima? Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari nimalardan iborat? Kompyuter avlodlari va sinflari. Kompyuter rivojlanish tarixi ? Hamma berilgan fikrlar doskaga yoziladi 3. Shundan so'ng, ma'ruza tartiblanib, daftarga yozishni taklif qiladi..	Eshitadilar, yozadilar

TAYANCH KONSPEKT

Informatika va axborot texnologiyalari fanining maqsadi, vazifalari.

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rganishdan maqsad quyidagilar haqida mukammal bilimga ega bo'lishdan iborat:

- informatika va axborot texnologiyalari fanining taraqqiyoti;
- axborotlar va ularning tasnifi;
- axborotlarning EHM da tasvirlanishi;
- kompyuter avlodlari;
- kompyuter qurilmalari va ularning ishlash prinsiplari;
- dasturlash haqida ma'lumotlar.

Informatika fanining asosiy vazifasi – milliy iqtisodiyotda iqtisodiy va texnologik jarayonlarni tashkil qilish va boshqarish masalalarini hal qilishda informatika fanining yutuqlaridan, ya'ni matematik modellash, algoritmlar tuzish, axborot ta'minotini tayyorlash, dasturlardan foydalanish va masalalarni kompyuterda echishni o'rganishdan iborat.

Informatika. Axborot xususiyatlarini o'rganish, uni yig'ish, saqlash, qidirish, qayta ishlash, o'zgartirish hamda inson faoliyatining turli sohalarida foydalanish va tarqatish bilan shug'ullanadigan fan **informatika** deb ataladi.

Informatikaning taraqqiyoti va yo'nalishi.

Informatikaning asosiy uchta yo'nalishi mavjud.

Birinci yo'nalish axborotni uzatish, yig'ish va qayta ishlashning texnik vositalarini rivojlantirish nazariyasi bilan bog'liq. U o'z ichiga hisoblash komplekslarini, lokal va global hisoblash tarmoqlari, aloqa nazariyasini olgan keng ilmiy-ommaviy sohadir.

Ikkinchi yo'nalish ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha har xil amaliy vazifalarni hal etish yuzasidan turli kategoriyadagi foydalanuvchilar uchun texnik vositalar bilan samarali ishlashni tashkil qilish imkonini beradigan, dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga yo'naltirilgan, matematik va amaliy fanlar kompleksini o'z ichiga olgan dasturlashtirishdir.

Uchinchi yo'nalish – avtomatlashtirilgan usulda turli darajadagi vazifalarni hal etish modellari, algoritmlari, tartibi, texnologiyasini ishlab chiqish va tashkil qilishdir.

Informatika o'zaro aloqador uch qismdan iborat: algoritmik vositalar, dasturiy vositalar va texnik vositalar.

Informatika fanining *asosiy ashyosi* axborotdir. Axborot atrof-muhit, ob'ektlar va hodisalar, ularning o'lchamlari, xosiyatlari va holatlari to'g'risidagi ma'lumotdir. Ma'lumot bilan axborot bir-biridan farq qiladi. *Axborot foydalaniladigan ma'lumotdir.* Informatikaning tarkibiy qismi bo'lib *axborot texnologiyasi* va *telekommunikasiya* hisoblanadi. Texnologiyalar. "Texnologiya" grekcha so'z bo'lib mohirlik, ustalik, biror ishni uddalay olishni anglatadi. Bu ma'lum bir jarayonga nisbatan qo'llanilgan. Jarayon deganda esa maqsadga erishishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar majmui tushunilgan.

Axborot texnologiyasi – ob'ektning (axborot mahsulotining) holati, jarayon yoki voqeaning yangi xususiyati to'g'risida axborot olish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish vositalari va usullari majmuidan foydalaniladigan jarayondir.

Axborot texnologiyasining maqsadi esa – axborot ishlab chiqarish bo'lib, uni tahlil etish va uning asosida biror bir harakatga qo'l urish uchun tegishli qaror qabul qilish.

Axborotlarni yig'ish, uzatish, to'plash, saqlash, taqdim etish va foydalanish ushlari va usullari tizimi axborot texnologiyasi deb yuritiladi.

Avtomatlashtirish – bu inson ish faoliyatini mashina va mexanizmlar bilan almashtirish demakdir.

Axborot texnologiyalari taraqqiy etishining asosiy bosqichlari va rivojlanish tendensiyasi.

Xorijiy mutaxassislar axborot texnologiyalari rivojlanishiing beshta asosiy tendensiyasini ajratib ko'rsatadi:

1. Axborot mahsulotlarining murakkablashuvi. Axborot vositasi ko'rinishidagi axborot mahsuloti, ekspert ta'minoti txizmatining ma'lumotlar bazasi strategik ahamiyat kasb eta boradi.

2. Birgalikda harakat qilish qobiliyati. Axborot mahsulotining ahamiyati oshib borishi bilan mazkur mahsulotlarni kompyuter va inson yoki axborot tizimlari o'rtasida ideal tarzda almashuvini o'tkazish imkoniyati ilg'or texnologik muammo kasb etadi.
3. Oraliq bo'g'inlarni tugatish. Birgalikda harakatlanish qobiliyatining rivojlanishi axborot mahsulotlari almashish jarayonining takomillashuviga, so'ngra, axborot manbai yo'lidan iste'molchiga qarab oraliq bo'g'inlar tugatiladi.
4. Globallashtirish. Tashkilot yo'ldosh aloqa va Internet tarmog'ida foydalanib axborot texnologiyalari yordamida hohlagan joyda va hohlagan paytda ish olib borish mumkin.
5. Konvergensiya (uyg'unlashish). Konvergensiya AATning zamonaviy rivojlanish jarayonining oxirigi bosqichi sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda mahsulotlaro va xizmatlar, axborot va dam olish, shuningdek, ovozli, raqamli hamda videosignallarni uzatish kabi ish rejimlari o'rtasidagi farq yo'qoladi.

O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish dasturi.

O'zbekistonda axborot texnologiyasi rivojlanishini tezlashtirish va zamonaviy darajaga ko'tarish uchun Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator qarorlar qabul qilingan. 1994 yilda Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasini axborotlashtirish konsepsiyasini qabul qilgan. Konsepsiya asosida "O'zbekiston Respublikasini axborotlashtirish Dasturi" ishlab chiqilgan.

Dastur uch maqsadni o'z ichiga oladi:

- 1) milliy axborot hisoblash tarmog'i;
- 2) EHM ni matematik va dasturiy ta'minlash;
- 3) shaxsiy kompyuter.

Milliy axborot hisoblash tarmog'i davlat aloqa tizimi negizida ishlaydigan va yagona qoidalarga rioya qilish asosida qurilgan davlat va idoraviy xususiyatga ega bo'lgan axborot hisoblash tarmoqlarini mujassamlashgan ochiq tizimidir.

EHM ni matematik va dasturiy ta'minlash axborotlashtirish masalalarining matematik modeli, hisoblash algoritmi va echim olish dasturini yaratishdan iboratdir.

Dasturning shaxsiy kompyuter qismi informatika industriyasini yaratish va rivojlantirishdan iborat.

Axborot va uning xossalari.

«Axborot» so'zi lotincha "information" so'zidan olingan bo'lib, biror ish holati yoki kishi faoliyati haqida ma'lum qilish, xabar berish, biror narsa haqidagi ma'lumot, degan ma'noni anglatadi. Informatika nazariyasida saqlash, qayta tuzish va uzatish ob'ekti sanalgan barcha ma'lumotlar axborot deb yuritiladi.

Axborot – bu, yaratuvchisi doirasida qolib ketmagan va xabarga aylangan, bilimlar noaniqligi, to'liqsizligi darajasini kamaytiradigan hamda og'zaki, yozma yoki boshqa usullar (shartli signallar, texnik vositalar, hisoblash vositalari va x.k.) orqali ifodalash mumkin bo'lgan atrof-muhit (ob'ektlar, voqea-hodisalar) to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Mazkur yo'nalishda quyidagilar muhim sanaladi:

- axborot – bu har qanday ma'lumot emas, balki u mavjud noaniqliklarni kamaytiruvchi yangi bir ma'lumotdir;
- axborot uni yaratuvchisidan tashqarida mavjud bo'ladi, u o'z yaratuvchisidan uzoqlashgan, inson tafakkurida aks etgan bilimdir;
- axborot xabarga aylanadi, chunki u belgilar ko'rinishida ma'lum bir tilda ifodalangan;
- xabar moddiy tashuvchiga yozib qo'yilishi mumkin (xabar axborotni uzatish shaklidir);
- xabar uning muallifi ishtirokisiz aks ettirilishi mumkin;
- u jamoat kommunikasiyasi kanallari orqali uzatiladi.

Axborotning asosiy xossalari:

To'liqlik; yaroqlilik; ishonchlilik; dolzarblik; tushunarlilik.

Axborotning ifodalanish shakllari va uning turlari.

Axborotning muhim xarakteristikalaridan biri uning *adekvatligi* hisoblanadi.

Axborotning adekvatligi – olingan axborot yordamida yaratilgan obrazning real ob'ekt, jarayon, hodisa va shunga o'xshashlarga mosligining ma'lum darajasi.

Axborotning adekvatligi uchta shaklda ifodalanishi mumkin: semantik, sintaktik va pragmatik.

Semantik (ma'noli) adekvatlik – ob'ektning uning obraziga (qiyofasiga) muvofiqlik darajasini aniqlaydi. Semantik nuqtai nazar axborotning ma'noli mazmunini hisoblashni ko'zlaydi. Bunda axborot aks ettirgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, ma'nolar bog'liqligi ko'riladi.. Masalan, axborotni kodlar orqali ifodalashni ko'rsatish mumkin.

Sintaktik adekvatlik – axborotning mazmuniga tegmagan holda, uning rasmiy-strukturaviy xarakteristikalarini ifodalaydi. Sintaktik darajadagi axborotni ifodalash usulida axborot elituvchi turi, uzatish va qayta ishlash tezligi, ifodalash kodining o'lchamlari, bu kodlarni o'zgartirish aniqliligi va ishonchliligi hisobga olinadi. Axborotning mazmuniga ahamiyat berilmaganligi sababi, bunday axborot ma'lumot deb ataladi.

Pragmatik (foydalanuvchanlik) adekvatlik – axborot bilan foydalanuvchining munosabatlarini aks ettiradi, axborotni uning asosida amalga oshiriladigan boshqarish sistemasi maqsadiga muvofiqligini ifodalaydi. Axborotning pragmatik xususiyatlari faqat axborot (ob'ekt), foylanuvchi va boshqarish maqsadlarining umumiyligida namoyon bo'ladi. Adekvatlikning ushbu shakli axborotdan amaliy foylanish bilan bevosita bog'langan.

Informatikada asosiy masala bo'lib hisoblash texnikasi qurilmalaridan axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatishda qanday foydalanish hisoblanadi. SHuning uchun informatikada axborotning ikki xil turi bilan ish ko'riladi, ya'ni analog va raqamli. Ko'pgina hisoblash texnikasi qurilmalari raqamli axborotni qayta ishlaydi. Analog axborotni raqamli axborotga o'zgartiruvchi maxsus qurilmalar mavjud bo'lib, bunday o'zgartirishni **analog-raqamli o'zgartirish** deyiladi. Inson sezgi organlari shunday tuzilganki, u analog axborotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash imkoniyatiga ega. Televizor – bu analog qurilma, kompyuter monitori – televizorga o'xshasada, lekin u raqamli qurilma.

Axborotni kompyuterda tasvirlanishi.

Kompyuter faqat raqamli ko'rinishdagi axborotni qayta ishlaydi. Barcha boshqa turdagi axborot (ovozlar, tasvirlar va boshq.) kompyuterda qayta ishlanishi uchun raqamli ko'rinishga keltirilishi zarur. Ovozni raqamli ko'rinishga o'zgartirish uchun kichik vaqt oralig'ida ovoz intensivligini o'lchash va har bir o'lchash natijalarini raqam ko'rinishida aks ettirish zarur. Kompyuter dasturi yordamida olingan axborotni qayta ishlab, hosil bo'lgan natijani ovoz shakliga qaytarish mumkin. Kompyuterda matni axborotni qayta ishlash uchun matni kompyuterga kiritilayotganda har bir xarf ma'lum bir raqam bilan kodlanadi. Tashqi qurilmalarga (monitor ekrani yoki printer) chiqarilayotganda esa inson qabul qilish uchun ushbu raqamlar orqali xarflarning tasviri quriladi. Xarflar to'plami va raqamlar o'rtasidagi moslik **belgilarni kodlashtirish** deb ataladi.

Kompyuterda barcha raqamlar 0 va 1 orqali ifodalanadi. Kompyuter ikkilik sanoq sistemasida ishlaydi. Kompyuterda axborot birligining o'lchovi bo'lib bit, ya'ni 0 yoki 1 qiymatni qabul qilishi mumkin bo'lgan ikkilik razryad hisoblanadi. Kompyuter komandalari alohida bitlar bilan emas, balki sakkiz bit bilan birgalikda ishlaydi. Sakkizta ketma-ket bit bir baytni tashkil etadi. Baytlar yordamida raqamli ko'rinishda ifodalangan har qanday axborotni kodlashtirish mumkin. Bir baytda 256 xil belgilardan birining qiymatini kodlashtirish mumkin ($256 = 2^8$) bo'ladi. Baytning qiymati uchun undagi bitlarning joylashgan o'rni muhimdir. Axborotda qatnashgan har qanday belgi 1 bayt hajmli deb hisoblanadi. Masalan, "SH" harfi - 1 bayt, "Kitob" – 5 bayt hajmga ega. Bir bayt 0 dan 255 qiymatni qabul qilishi mumkin. Axborotning yirik birliklari:

- 1 Kilobayt (Kb) = 1024 bayt
- 1 Megabayt (Mb) = 1024 Kbayt
- 1 Gigabayt (Gb) = 1024 Mbayt
- 1 Terabayt (Tb) = 1024 Gbayt
- 1 Petabayt (Pb) = 1024 Tbayt

Bir bet matnda o'rtacha 2500 belgi bo'lsa, u holda 1 Mbayt - taxminan 400 bet, 1 Gbayt – 400 ming betdan iborat bo'ladi.

Axborotni saqlovchi vositalar.

Axborotlar ustida bajariladigan amallardan muhimi – bu axborotni to'plash. To'plangan axborotlardan keng foydalanish uchun ularni saqlash lozim. 8 razrayadli BAYTda ikkilik son quyidagicha ifodalanadi: 11 111 111. Uni o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazsak 255 ga teng. Bundan kelib chiqadiki, bir baytda 256 (0 bilan birgalikda) ta o'nlik sonlar yozish mumkin ekan. Bu baytning fundamental asosini tashkil etadi. Baytlardan tuzilgan axborotning mantiqiy ketma-ketligi **fayl** deyiladi. Axborotning yozilish formatini uning fayli nomi orqali aniqlash mumkin. Axborotni fayl ko'rinishida egiluvchan, qattiq va lazer disklarda saqlanadi. Bunda fayl adresini *qidiruv yo'li* deb ataladi. Qidiruv yo'li faylga olib boruvchi disk nomi va barcha kataloglar nomi orqali tashkil qilinadi. **Katalog** – diskdagi fayllarning nomlari, ularning kengaytmalari, tuzilgan kuni va vaqtlari, uzunliklari va boshqalarni saqlashga mo'ljallangan joydir. Har bir katalog o'z nomiga ega.

Axborotlarni saqlashda egiluvchan magnitli disklar – 5,25 va 3,5 dyumli disklar, qattiq magnitli disklar (vinchestr) va lazer disklardan foydalaniladi. Egiluvchan magnitli 3,5 dyumli disketalar (uzunligi 89 mm) 0,72; 1,44; 2,0 va 2,88 Mb hajmda bo'ladi. Qattiq magnitli disklar kompyuterda ishlash uchun zarur bo'lgan barcha dasturlarni o'zida saqlaydi, ularning hajmi 40 Gb, 80 Gb, 360 Gb. Lazerli CD-ROM disk 650 Mb hajmli, CD-RW disk 650-700 Mb hajmli, DVD disklar 28 Gbga hajmdagi axborotni o'zida saqlashi mumkin.

“Kompyuter” degan so'z inglizcha so'zdan olingan bo'lib, “hisoblovchi qurilma ma'nosini anglatadi.. Garchand u hozirda faqat hisoblovchi bo'lmasdan, matnlar, tasvirlar, tovushlar, video va boshqa ma'lumotlar ustida xam amallar bajapadi. Shunga qaramasdan, hozirda uning eski nomi kompyuter saqlangan. Uning asosiy vazifasi turli ma'lumotlarni qayta ishlashdan iborat.

Kompyuterning paydo bo'lish tarixiga ahamiyat bersak, 19 asrning boshlaridayoq ingliz matematigi CH. Bebbidj analitik mashina deb atalgan mexanik kompyuter yaratmoqchi bo'lgan. Boshqaruvni esa rerefokarta (qattiq karton qog'oz) beriladigan programma orqali amalga oshirish rejasini tuzgan, afsuski bu rejani ro'yobga chiqara olmagan 1940 yillarda mexanik relelar asosida, CH. Bebbidj tajribasini birinchi bor nemis olimi K.Suze qaytarib kichik kompyuter yaratgan, biroq urush tufayli e'lon qila olmagan.

1943 yilda esa, AQSHda G. Eykek tomonidan arifmometrda 100 barobar tez ishlaydigan ancha quvvatli “Mark-1” kompyuteri rele bazasida yig'ilgan. U harbiy xisob-kitoblarda ishlatilgan.

Biror elektromexanik rele juda sekin va keraklixa ishonchli ishlamasdi. Shundan keyin 1943 yilda AQSHda elektron lampalarga asoslangan ENIAC – kompyuteri yaratildi. Uning tezligi “Mark – 1” dan 10 ming marta tez bo'lsada, amallar boshqaruvi to'liq o'ylanmaganligi , eng qizig'i boshqaruv programmasi simlarni mexanik uyalarga (xuddi avvalgi vaqtda kommutatorlar telefon simlarini ulab aloqa tiklashgandek) kiritib bog'lash bilan amalga oshirilgan. Bunday bog'lashlarga soatlar, goxida kunlar kerak bo'lgan.

!945 yilda mashxur matematik Djon fon Neyman kompyuterning ishlash prinsipini qanday bo'lishini e'lon qildi.

Mazkur rrinsir asosida kompyuter quyidagi qurilmalardan iborat bo'lishi lozim:

- a) ALQ - arifmetik – logik amallarni bajarish uchun ishlatiladi.
- b) Boshqaruv qurilmasi – programma bajarish jarayonini boshqapadi
- v) Xotira – programma va ma'lumotlarni saqlaydi.
- G) Tashqi qurilma – ma'lumotlarni kiritadi va chiqaradi.

O'sha vaqtdan hozirgi kungacha yaratilayotgan kompyuterlarning aksari Fon Neyman prinsipi asosida yaratilaypti. Lekin keyingi paytlarda ko'p prosessorli kompyuterlar, ya'ni bir vaqtda programmaning bo'laklarini ketma-ket emas, balki parallel bajapadigan kompyuterlar yaratilgandir.

Fon Neyman prinsipi bo'yicha avtomatik ravishda bajariladigan programma avval kompyuterning xotirasiga kiritadi, u yerda turgan programma asosida programmani tashkil etuvchi har bir operator ketma-ket bajariladi. Boshqaruv qurilmasi hozir qanday operator bajarilishi va undan keyin qaysi operator bajarilishi ustidan nazorat o'rnatadi va uni bajarilishini ta'minlaydi. Amal (arifmetik-mantiqiy) esa prosessor deb ataluvchi qurilmada bajariladi.

Demak, 1949 yilda Fon Neyman prinsipiga asoslangan birinchi kompyuterni ingliz olimi Moris Uilki yaratdi va kompyuterlar erasi boshlandi. Quyidagi parametrlarni hisobga olib , kompyuter avlodlarini sanab o'tamiz:

- tezkorligi (sek/amal);
- operativ xotira hajmi;
- element bazasi.

Bulardan tashqari kompyuter qaysi avlodlarga mansubligiga, ishi qanday tashkil etilganligi, qanday programma asosida ishlashiga qarab quyidagi avlodlarga ega.

1 – avlod, (1946-1955): element bazasi: elektron vakuum lampalarda ishlovchi EXM, tezkorligi: xotirasiga 10-20 ming amal bajaradi.

Xotirasi 4096 bayt (Xozirgi Pentium– 1 Megabayt)

2 – avlod (50-60): Diskret yarim o'tkazgichli asboblarda (tranzistorlarda) , tezkorligi sekundiga 100 ming, hattoki 1 mln amal bajaradi. 1959 yili Intel - firmasining tavsichisi Robert Roys kremniyning kichkina plastinkasida tranzistor bog'lash usulini ixtiro qilgan.

3- avlod (1960 y. O'rtalari - 70 yillar) . Element bazasi integral sxema, ya'ni yuzasi bir necha kvadrat millimetr bo'lgan kristalida 360 elektron sxema joriy qilingan. Tezkorligi sek. 100 mingdan milliongacha amal bajara oladi. OX – 1 Mbayt.

4 – avlod (70-80y) Element bazasi – katta integral sxemalardan , mikroprosessorlarda ishlovchi EXM (o'ng minglab, millionlab tranzistor bir kristallda joylashgan)

To'rtinchi avlod kompyuterlarining rivojlanishi 2 yo'nalish bo'yicha amalga oshirildi. 1 yo'naliy ko'p prosessorli hisoblash sistemalari tezkorligi 100 mln amal bajaradi va shaxsiy kompyuter yaratish asosida hisoblash tarmoqlarini bunyod etishdan iborat IVMRS, Elektronika 60M, DVK-2M, Iskra 226 va x.k.

5 – avlod kompyuterlari (90 yillar) , bir qancha o'nlab parallel ishlovchi mikroprosessorlari bo'lgan EXM, bir paytda o'nlab ischil dasturiy buyruqlarni bajaruvchi parallel – vektorli tuzilmasi bo'lgan o'ta murakkab mikroprosessorlarda ishlovchi 1-100 mlrd. amal . sek. EXM.

6 – avlod kompyuterlari optik elementlar asosida yaratilgan kelajak kompyuterlari, Bunda elektr toki lazer nurlari bilan almashtiriladi. Sun'iy intellektda tasvirlanishi kerak. Yaponiya 1 o'rin egallaydi.

Kompyuterlarni o'z imkoniyatlariga ko'ra olti guruxga bo'lish mumkin.

- super kompyuterlar, universal kompyuterlar, mini kompyuterlar , shaxsiy bloknot (noutbuk) kompyuterlar, cho'ntak kompyuterlar

Super kompyuterlar juda katta tezlikni talab qiladi va katta xajmdagi masalalarni yechish uchun mo'ljallagan bo'ladi.

Universal kompyuterlar – fan va texnikaning turli sohalariga oid masalalarni yechishga mo'ljallangan. Tezligi, xotira hajmi super kompyuterdan bir pog'ona past CRAY rusumli kompyuterlari misol bo'la oladi.

Mini kompyuterlar SUN - nomli kompyuterlar misol bo'la oladi. Hajmi va bajaradigan amal tezligi universal kompyuterlaridan kamida 1 pog'ona past.

Shaxsiy kompyuterlar hozirda korxonalar, muassasalar oliy o'quv yurtlarida keng tarqalgan bo'lib, IBM kompyuterlaridir. IVM rusumiga mos kompyuter deganda ularning ham texnik, ham programma ta'minoti mosligi ko'zda tutiladi. Bu kompyuter hajmi jihatdan kichik amal bajarish tezligi Pentium – 3 MMX prosessori o'rnatilgan kompyuterlarida hozirgi kunda 500 – 750 megabits, xotira hajmi esa 64 – 128 megabaytni tashkil qiladi. 386, 486 SH, 486 DX, 586, Pentium, Pentium PP0 , cho'ntak kompyuterlari. Kaftga joylashadigan 300 – 5000 gramm og'irlikdagi kichik kompyuterlar. Bataryalarda ishlaydi. Qattiq disk , yumshoq disk , SD – ROM lari yo'q. Klaviaturasi yo'q cho'ntak kompyuterlari xam mavjud. Bunda ekranga pero orqali yozishimiz yoki chizishimiz mumkin . Fairma Arrle, Sony, Psion va boshqalar.

Shaxsiy kompyuterlarning tuzilishi.

Shaxsiy kompyuterlar (inglizcha,qisqacha RS) quyidagi asosiy qurilmalardan tashkil topgan (VM,RS).

- sistemalar bloki – ichki qurilmalar joylashadi.
- Klaviatura belgini kompyuterga kiritadi.
- Monitor (disrley) ma'lumotlarni matnli va tasvirli tasvirlash imkonini bepadi.

Kompyuterlar imkoniyatlarini oshirish maqsadida unga turli qo'shimcha qurilmalar ulanishi mumkin.

Bular:

Sichqoncha – ma'lumotlar kiritilishini engillashtiruvchi manirulyator.

Printer – ma'lumotlarni qog'ozga chiqapadi.

Skaner – qog'ozdagi ma'lumotni kompyuterga tasvirli yoki matnli ravishda kiritadi.

Modem – telefon tarmog'i orqali boshqa kompyuter bilan ma'lumot almashish imkoniyatini bepadi.

Plotter – turli tasvirni va grafiklarni bosmaga chiqarish qurilmasi.

Strajer – kompyuterning venchesteridagi ma'lumotlar nusahasini zaxiraga olish uchun mo'ljallangan qurilma bo'lib , ma'lumotlarni magnit lentali kassetaga (kartridjga) yozishga mo'ljallangan.

Kompakt disklar – 610 Mgbaytgacha ma'lumatlarni saqlay oladi. Ular asosan o'qish uchun ishlatiladi va ularga ma'lumot tayyorlayotgan pallada yoziladi. Audiorlat ovoz kartasi bo'lsa, audio-kompakt disklardan musiqa, kuy, qo'shiq eshitish imkonini bepadi.

Trekbol – shar shaklidagi manipulyator. Kompyuter o'yinlarida foydalaniladi.

Tarmoq qurilmasi – bir necha kompyuterlarni tarmoqqa birlashtirilib, kompyuter o'zi axborot almashish imkonini beruvchi qurilma.

Har bir qurilma – sistema blokida joylashgan mos ulagichga ulanadi yoki o'rnatiladi.

Qo'shimcha qurilmani ulashdan avval kompyuterni o'chirish zarur , aks holda kompyuter ishdan chiqishi mumkin.

Endi asosiy qurilmani har birini ko'rib chiqamiz.

MONITOR.(Displey)

Kompyuter bilan bo'ladigan bevosita muloqatni ekranda ko'rish uchun monitor xizmat qiladi.

Monitor ikki xil rejimda: matn yoki grafik ma'lumot chiqaradi

Matnli rejimda displey ekrani shartli ravishda 80 ta ustunga, 25 satrga bo'linadi. Xar bir belgi joyga 256 simvoldan biri mos kelishi mumkin.

Grafik rejimda axborotlar nuqtalar to'plamidan iborat bo'lib, xar bir nuqta rangga egadir. (ranglar jilosi 16 rangdan 16,8 mln.ranggacha). Nuqtalar soni qancha oshsa, tasvirlar sifati shuncha oshadi. Monitorlar quyidagi imkoniyatli bo'lishi mumkin. 640 x 200 nuqtalardan 1600x1280 nuqtalarni hosil qilishi mumkin.

Monitorlar monixrom (oq-qora) va razmerlari (14 dyumdan – 21, 24 dyumgacha) bilan farqlanadi. Ekrandagi minimal (nuqtaviy) tasvirning ko'rinishi piskel (picture element) deyiladi. Odatda EGA adapteri to'rtvurchakli piksel tashkil qilsa, 640x350 nuqtalar hosil qila oladi. VGA – 640x480, SVGA – 640x480, 800x600, 1024x768 – kvadratni hosil qiladi.

Kompyuterga monitor ulash uchun videoadapter zarur.

Videoadarter – tasvir to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadigan xotiraning muayyan qismini monitorda aks ettiruvchi signalni, hamda sinxronizasiya signallarini gorizontal (satrli) va vertikal (ustun)taqsimlab, shakllantirishdan iborat.

Monitor sifati bo'yicha : ekrandagi kadrlar chastotasi – 75 Gs ni tashkil etishi lozim. Bu holda monitor sekundiga 80, yaxshi monitorlar 100 kadrni o'tkazishi mumkin.

Notebook kompyuterlari monitori suyuq kristalli monitorlardir.

K L A V I A T U R A .

Klaviaturada foydalanuvchi tomonidan ma'lumotlarni kompyuterga kiritishga mo'ljallangan qurilmadir. IBM PS XT kompyuterlarida 83 ta tugmachali klaviatura IBM PS AT 101 tugmachali klaviaturalar mavjud. Hozirda, asosan 101, 105 klavishligi chiqariladi.

Klaviaturadagi tugmachalarni bajapadigan vazifaga qarab quyidagi bo'lakka bo'lamiz.

1. Alfavit – raqamli , maxsus belgilar kiritiladigan klavishalar (tugmachalar) (probel, 0-9 bo'lgan sonlar , lotin xarflar A - Z , kirill xarflari , A – YA , xizmatchi simvollar va x.k.)

2. Funktsional klavishalar F1- F10

3. Xizmatchi klavishlar ENTER, EXC, yo'nalish tugmachalari.TAB, LEFT, Up , DOWN, RIGHT, PgUr, PgDn.

4 . Yordamchi klaviatura.

Ayrim xizmatchi klavishalarni ko'rib chiqamiz.

ENTER – satr kiritilishi tugaganligini bildiradi;

EXC – (inglizcha qochish) buyruqni bekor qilish , dasturdan chiqish uchun foydalaniladi;

HOME – kursorni qator boshiga qo'yadi.

END - kursorni qator oxiriga qo'yadi

PgUr – matnni orqaga varaqlaydi.

PgDn - matnni oldinga varaqlaydi.

Delete [Del] – kursor ko'rsatayotgan belgini olib tashlash.

Ins [Insert] – simvol kiritayotgan vaqtida bosilsa , kursor ko'rsatayotgan pozisiyadagi mavjud simvol o'rniga yangisi uriladi. Agar mazkur klavish bosilmasa, bor simvol bir pozisiyaga, o'ngga surilib oraga yangi simvol kiritiladi.

Baskpace – kursordan chapdagi belgini o'chipadi.

Print Screen – ekrandagi tasvirni qog'ozga printer orqali bosib chiqaradi, undan tashqari faylga va Windows buferiga nusxa ko'chirishga xizmat qiladi.

[Break] – programma ishini to'xtatadi.

[Scroll Lock] – blokirovka rejimi surishni saqlaydi. Kursor ekranga o'z xolatini mustaxkamlash ishini bajapadi.

Tab – matnlar bilan ishlanayotganda keyingi qator navbatdagi maxsus ko'rsatilgan nuqtaga (pozisiyaga) suradi (o'ngga – chapga).

Ctrl (boshqarish) + Alt (o'zgartiruvchi) + Shifr (surish) – boshqa tugmachalarning vazifalarini o'zgartirish uchun ishlatiladi.

Numlock – bosilsa raqamlar kiritish, aks holda kursorni boshqaruvni klavishlar vazifasini o'taydi.

[Caps Lock] – bosma xarflarni kiritish yana bossangiz yozma (kichik) xarflarga o'tish mumkin.

[Shift] + [Ctrl] yoki [Shift] + [Ctrl] – alfavitni o'zgartirishimiz mumkin.

[Ctrl]+[Alt]+[Del] – baravariga bosilsa, kompyuter qayta yuklanadi.

[Rr + Sor] [Shift] + [Rr + Ser] – ekrandagi tasvirni qog'ozga printer orqali chiqariladi.

[Ctrl] + [Break] – bajarilayotgan programma yoki buyruq tugatilishini ta'minlaydi.

Kursor – bu o'chib yonib turadigan vertikal chiziqcha. Agar shu chiziqcha ekranda ko'rinsa, demak, siz alfavit raqamli axborotlarni kiritish mumkin. Masalan, grafik holatda esa kursor o'z ko'rinishini o'zgartirishi mumkin.

Windows muxitida ishlaganimizda sichqoncha ko'rsatkichi ↑ doim bo'ladi. Ayrim vaqtlarda ko'rsatkich o'z ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Sichqoncha yordamida quyidagi asosiy xarakatni bajarish mumkin:

- ko'rsatkichni ekranning kerakli joyiga ko'chirish;
- sichqoncha tugmasini bosib, darhol qo'yib yuborish;
- sichqoncha tugmasini ikki marta tez bosish biror ob'ektni tanlash.

Sistemalar bloki (prosessor)

Kompyuterning asosiy qismlari sistema blokida joylashgan bo'lib, ular quyidagilardir.

1. Elektron sxemalar :

- mikroprosessor kompyuterni boshqarish va barcha hisob ishlarini bajaradi. Mikroprosessor turli amallarni tez bajarish qobiliyatiga ega. Uning tezligi sekundiga 100 mln amalga va undan ortiq bo'lishi mumkin. IBM PC kompyuterlarida odatida Shtud firmasi va unga muvafiq boshqa firmalarning mikroprosessorlari o'rnatiladi. (AMD, Cyrix, IBM va boshqalar).

Mikroprosessor Intel 8088, 80286, 80386 SH, 80386 DX, 80486, Pentium, Pentium Pro kabi turlari mavjud.

Mikroprosessorlarning tezligini takt chastotasi belgilaydi. Bir turdagi mikroprosessorlar turli takt chastotasi bilan ishlab chiqarilishi mumkin. Shu sababdan takt chastotasiga qarab mikroprosessorining bahosi va unumdorligi har xil bo'ladi. Takt chastotasi megahertsalarda (Mgs) o'lchanadi. Masalan, Takt chastotasi 75 Mgs dan 200 Mgs ga bo'lgan Pentium mikroprosessori ishlab chiqarilmoqda. Takt chastotasi mikroprosessor ichidagi elementar operatsiyalarning tezligini ko'rsatadi. Mikroprosessor modeli bilan takt chastotasi ko'rsatiladi. Masalan: Pentium / 75 Mgs. Soprosessorlar matematik hisoblarni, ayniqsa, xaqiqiy sonlar bilan bajariladi – amallarni hisoblashga yordam beradi. 80486 DX, Pentium, Pentium Rro larda sonprosessorlar mavjud, chunki sistemaga kiritilgan.

Xotira ma'lumot va programmalarni saqlash uchun xizmat qiladi va ular bir necha turga bo'linadi: operativ xotira. KESH xotira, BIOS (doimiy xotira) , CMOS (yarim doimiy xotira) va videoxotira .

Tezkor operativ xotira kompyuterning muhim qismi bo'lib, prosessor undan amallarni bajarish uchun programma, berilganlarni oladi va amalni bajarib, natijani yana unda saqlaydi. Kompyuter o'chirilsa, tezkor xotipada saqlanayotgan programmlar berilganlar yo'q bo'lib ketadi. RAM (random acctss memory, - ya'ni ixtiyoriy kirish mumkin bo'lgan).

Xotiraning katta-kichikligiga qarab, u yoki bu programmlar majmuini ishlata olish mumkin.

1 Mbayt - DOS

4 Mbayt - W – 3.1

16 Mbayt - W – 95

32 Mbayt - W NT,lokal tarmoq, Photoshop,Pentium 2,3.

Kesh xotira – kompyuter ishlash tezligini oshirish uchun ishlatiladi. U tezkor xotira va mikroprosessor orasiga joylashgan bo'lib, bajariladigan amallar tezdir. Shuning uchun kompyuter xotirasining ko'proq ishlatiladigan qismi nushasini KESH xotipada saqlab turadi. Pentium 2,3 kompyuterlarda KESH xotira 512 Kb ni tashkil qiladi.

Doimiy xotira - BIOS – Basic Inrut Outrut System – kiritish-chiqarishning asosiy sistemasi. Ulardagi ma'lumotlar mikrosxema tayyorlanayotganda kiritib qo'yiladi. Bunday xotipadan faqat o'qish mumkin . Shuning uchun ham u ROM (Read Only Memory - faqat o'qish uchun) deb ataladi. Bu xotira kompyuter jihozlarini ishlashini tekshirish, OS ni boshlang'ich yuklanishini ta'minlash, qurilmalarga xizmat ko'rsatishning asosiy funksiyalarini bajarish uchun xizmat qiladi. BIOS da, shuningdek kompyuter konfiguratsiyasini saqlovchi Setup programmasi ham joylashgan bo'ladi. Bu programma masalan, videokontroller, qattiq disk va disket diskovodi, undan tashqari parollar o'rnatish va boshqa xizmatlar qiladi. DEL tugmasi orqali chaqiriladi. CMOS (yarim doimiy xotira) - (complementary metal – oxida semi conictor) konfiguratsiya parametrlarini saqlovchi yarim doimiy xotira. Maxsus akkumulyatorlar yordamida kichik quvvatda ishlaydi. Shuning uchun undagi ma'lumot o'chib ketmaydi. SETUP programmasi har gal kompyuter konfiguratsiyasini so'zlaganda, lozim bo'lsa, CMOS xarakteristikalariga o'zgartirish kiritadi.

Videoxotira - u monitor ekraniga chiqariladigan tasvirni saqlashga xizmat qiladi. Videokontroller tarkibiga kiradi.

Kompyuterdagi eng katta plata – sistema platasidir. Bu plata tekis plastinka va unga joylashgan mikrosxemalar, kondensator, raz'emlar va boshqalardan iborat, ular o'zaro o'tkazgichlar bilan bog'langan bo'ladi. Ona platada mikroprosessor, xotiralar, shinalar, kontrolerlar mavjud bo'ladi.

Kontrollerlar - kompyuterning turli vositalari , qurilmalarini boshqaruvchi elektron sxemalardir. Barcha kompyuterlarda klaviatura, monitor, qattiq va egiluvchan disk qurilmalari va

hokazo kontrollerlar mavjud. Hozirgi zamon kompyuterlarining barchasida kontrollerlar ona plataga joylashgan bo'ladi. Bularni integrallashgan kontrollerlar deb ataladi.

Amalda har bir kontroller o'zi uchun alohida yasalgan platada joylashadi. Bu platalar sistemali plataning maxsus raz'yomlariga ulanadi. Natijada iste'molchi o'z kompyuteriga qo'shimcha qurilmalar qo'yishi mumkin. (Masalan, faks-modem, tovush kartasi yoki teleko'rsatuv ulash mumkin).

Shinalar – operativ xotira va kontroller orasida o'zaro ma'lumot uzatish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun kontroller platasi ona plata raz'emiga kiritilganda shina ulanadi. Zamonaviy kompyuterlarda 2 turdagi shinalar mavjud.

ISA – turdagi shinalar, tezligi sustroq bo'lgan kontrollerlar uchun (klaviatura, sichqon, disket qurilmalari, modem tovush kartasi va boshqalar).

RCI - turdagi shina tezligi yuqori bo'lgan qurilmalar orqali ma'lumot uzatishga xizmat qiladi (vinchestor, videokontroller va boshqalar).

Kiritish-chiqarish portlari kontrollerlari kompyuterning orqa panelidagi raz'yomiga kabellar orqali ulanadi. Kiritish – chiqarish portlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- parallel (ZE1 – ZE4), 25 uyali printer ulanadi;
- ketma-ket (SOM1 – SOM3 belgisi) 9 va 25 bigizli sichqon, modem va boshqalar ulanadi;
- o'yin porti , 1.5 uyali raz'yomiga djoystik ulanadi.

2). **Kompyuterning energiya bloki** kompyuterning asosiy korpusidagi qurilma va vositalarni yetarlicha energiya bilan ta'minlovchi moslama. Uning asosiy vazifasi vositalarni energiya bilan ta'minlash, havo almashtirish va prosessor ichini sovutishdir.

3). **Egiluvchan magnit disklar** (disketlar) programmalar, ma'lumotlarni bir kompyuterdan boshqa kompyuterga ko'chirishga, hamda saqlashga xizmat qiladi. Disketlar qurilmasi (FDD – Florry Dick Drives) esa esa o'qish yozishga xizmat qiladi. Disketlar razmeri 5,25 dyuym (1.33mm) va 3.5 dyuym (89 mm) o'lchovida bo'ladi. 3.5 disket hajmi 1.44 Mbayt, 5.25 disket hajmi 3.60 Kbayt

Oxirgi kompyuterlarda 3.5 Mbaytli disketlardan foydalanish amalda kiritilgan. Disketlardan foydalanishdan oldin formatlash zarur (maxsus programma orqali). Formatlanganda buzilgan uchastkalari defektli deb belgilab qo'yiladi va u yerga axborot yozilmaydi. Yo'l, sektorlarga bo'linadi.

Vinchestor - qattiq disk NDD (Xard Disk Drree) . Qattiq magnit disk kompyuterda ishlanadigan programmalar va ma'lumotlarni doimiy saqlash uchun qo'llaniladi. Ular OS programmalar, taxrirlagichlar, programma sistemalari, amaliy programmalar va x.k. Vinchestor OX hisoblamaganda boshqa qurilmalar ichida eng tez yuqori qo'zg'alish (7- 20 millisekund, ms) va o'qish-yozishni 5 Mbaytgacha tezligini ta'minlaydi.

Kompyuter foydalanuvchi vinchesterni asosan 3 parametriga qarab aniqlab oladi. Bular – sig'im, tezlik, interfeys. (XDD SEA CATE – 40-80-120-160, G8, VAHTOR – 40, 80, 120, 250, 200G8.).

Sig'im – diskda joylashishi mumkin bo'lgan ma'lumot miqdorini belgilaydi. Eng birinchi IBM RS kompyuterlarida qattiq disk sig'imi 5 Mbayt bo'lgan bo'lsa, xozir 800 Mbaytdan to 1,6 Gbaytgacha, hattoki 2-4 Gbaytga etdi. 500 Mbaytli qattiq disklar eskirgan hisoblanib, ishlab chiqarishdan olingan. Hozirgi vaqtda qattiq diskning miqdorini 9 Gbaytga etkazilgani ma'lum. (18-27 Gbayt). Vinchestor tezligi qo'zg'alish va ma'lumotlarni o'qish-yozish bilan xarakterlanadi. Ko'p kompyuterlarda diskdagi qo'zg'alish 1-12 ms, yangi disklarda 7 -8 ms ga teng. Kompyuter arzon variantlarida tezlik 1,5-3 Mbayt , qimmatroqlarida 4-5 Mbaytni tashkil qiladi. Vinchestor asosan EIDE turidagi interfeys bilan kontrollerga ulangan bo'ladi. Hamma kompyuterlarning ona platasida EIDE kontrollerlari mavjud.

Kompakt disklar. 640- Mbaytgacha ma'lumotlarni saqlay oladi. Kompakt disklar asosan o'qish uchun ishlatiladi va ularga ma'lumot tayyorlanayotgan pallada yoziladi. Bu ma'lumotlar o'yinlar kompleksi, ensiklorediya va x.k. Ovoz kartasi mavjud bo'lsa, qo'shiq, kino, videoklir eshitish imkonini beradi. Lazer diskleri CD ROM qurilmasiga qo'yiladi. Axborotlarni o'qish lazer nurlari orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni qog'ozga chiqaruvchi qurilma printer deb ataladi. Printerlar faqat matn ma'lumotlarini emas, balki rasmlar, grafiklarni ham bosib chiqaradi. Printerlar ma'lumotlarni 2 xil rangda chiqapadi: qora va rangli.

Printerlar matrisali (ignali), purkaguvchi (oqimli), lazerli, sublimasion printerlarga bo'linadi. Matrisali Printerlar – ignalar soniga qarab (9,24,48 ta) Printerlarga bo'linadi. Qanchalar nuqtalar soni ko'p bo'lsa, shunchali bosma sifatli bo'ladi. Matrisali Printerlarning bosish tezligi bir qog'ozga taxminan 10-60 sek oralig'ida bo'ladi. Ishlash prinsipi bosish moslamasida (golovkada) joylashgan ignalar yordamida satr bo'ylab harakatlanib, kerakli raqam, simvol va boshqalarni bo'yalgan lenta orqali qog'ozga uradi. Purkagichli printerlarning ishlash prinsipi. Bosish moslamasida naycha siyox purkashi orqali tasvir paydo bo'ladi. Bosish moslamasi gorizontal harakatlanib, har bir qatorga uriladigan belgini bosib, qator oxiriga yetganda, qog'oz vertikal bo'yicha bir qatorga tortiladi, so'ng bosish yangi qatorning birinchi simvolidan boshlab davom ettiriladi, tezligi 1 bet uchun 15-100 sek atrofida. Lazerli printerlar. Eng sifatli va tez ishlaydigan Printerlar. Bu Printerlarda baraban bo'ladi. Barabanga kerakli formatdagi tasvirga lozim ma'lumotlar kompyuter komandalari yordamida yuboriladi va lazer ularni elektrlab bo'yoq ranglari bilan qoplaydi. So'ng bir zarb bilan so'ralgan tasvir qog'ozga bosiladi. Bir betga 3-15 sek vaqt yetarli.

Rangli bosma uchun maxsus Printerlar qo'llaniladi. Tasviri eng yaxshi (fotografiya sifatiga o'xshash) ifodalar sublimasion (Dye Sublimation) Printerlarida hosil qilinadi. Biroq maxsulotlaridan qimmat.

Takrorlash uchun savollar:

1. Informatika va axborot texnologiyalari fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ?
2. Informatika va axborot texnologiyalari fan sifatida taraqqiy etishiga nima sabab bo'lgan ?
3. Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalaridan tashkil torgan,
4. O'zbekiston respublikasining axborotlashtirish dasturi nima sababdan va qachon qabul qilingan
5. Axborot nima va uning qanday xossalari bor?
6. Axborotning ifodalanish shakllari va o'lchov birliklari.
7. Axborot texnologiyalari qanday belgilar asosida tavsiflanadi?
8. Axborot texnologiyalarning taraqqiy etish bosqichlarini aytib bering.
9. Kompyuter nima, Uning asosiy vazifasi va uning yuzaga kelishi .
10. Fon Neyman kompyuterlari ishlash prinsiri.
11. Hozirgi kunda kompyuter guruxini va avlodlarin sanab o'ting.

MA'RUZA 2	Kompyuterning dasturiy ta'minoti. MS DOS operatsion tizim. WINDOWS operatsion tizimi .
Mavzuni o'rgatish texnologiyasi.	
<i>Talabalar soni : 25-50 ta.</i>	Vaqt- 2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining ko'rinishi</i>	“Ma'lum qilib o'qitish” usulini qo'llash axboriy mavzu.
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Dasturiy ta'minot tushunchasi, sinflari. 2. Operatsion tizim. 3. MS DOS operatsion tizim, strukturasi va buyruqlari. 4. Windows OT tarixi. Windows OT versiyalari va uning ishchi stolining elementlari
<i>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</i>	Dasturiy ta'minot tushunchasini, dasturiy ta'minot sinflarini tushuntirish, operatsion tizim.bilan tanishtirish. Windows operatsion tizimini va uning imkoniyatlarini to'liq tushuntirish
<i>Kalit so'zlar</i>	Dastur, dasturiy ta'minot, amaliy, tizimli ta'minot, instrumental tizim, operatsion tizim, utilitlar, drayverlar, faylli tizimlar, MS DOS, BIOS, Windows, ishchi stol
<i>Adabiyotlar ro'yhati</i>	1. P.C. Асадуллина Информатика: Учебное пособие-Кувасай,2000. 2.Х.З.Икрамова Информатика: Учебное пособие-Ташкент,2001. 3. Х.З.Икрамова Конспект лекций по дисциплине «Информатика» - Ташкент,2000. 4. С.В.Симонович и др. Специальная информатика: Учебное пособие-Москва, 2000
<i>O'qituvchining vazifasi:</i>	• Dasturiy ta'minotni pog'onalarini turli yo'llarini o'rganish faoliyatini uyushtirish, amaliy, instrumental,tizimli dasturlar bilan tanishtirish. • Operatsion tizim haqida gapirib berish va MS DOS operatsin tizim elementlarini tushuntirish • Windows OT versiyalarini gapirib berish • Ishchi stolning standart elementlarini tushuntirish Papka yaratishni, oynalar va piktogrammalar bilan ishlashni o'rganish .
<i>O'qitish faoliyatining natijalari:</i>	Talaba majbur: • «dastur», «dasturiy ta'minot», «utilitlar», «drayverlar»tushunchasiga ta'rif berishi; • Kompyuterning dasturiy ta'minot turlarini aytib berishi; • Instrumentel tizimni tushuntirish; • Yuqori va quyi dasturlash tillarini aytishi; • Amaliy dasturlarga nimalardan iborat ekanligini sanab berishi; • OC MS DOS ga qisqacha ta'rif berishi . • WINDOWS OT versiyalarini bilishi va tushuntirishi; • Ishchi stolning standart elementlarini aytib berishi; Papka yaratishni, oynalar va piktogrammalar bilan ishlashni bilishi
<i>O'qitishning usuli va texnikasi</i>	MA'RUZA – «Ma'lum qilib o'qitish», texnika: presentasiya
<i>O'qitish qurollari</i>	Doska, mel, proektor, ko'rgazma qurollar
<i>O'qitish sharoiti</i>	Guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya

Ma'ruzaning texnologik kartasi

Etaplar, vaqt	Faoliyat tarkibi.	
	O'qituvchi	Talaba
1 etap. Kirish (10 min.)	1.Mavzu, maqsadni, o'quv mashg'ulotning mo'ljallangan natijani va uni o'tkazish rejasini , kerakli vaqtni e'lon qiladi va asosiy savollarni eslatadi.	Eshitadilar, yozadilar
2 etap. Asosiy qism (60 min.)	1.Doskaga ko'rgazmali qurollarni osadilar.dasturiy ta'minot kategoriyasini tuzilishini qo'yadilar. 2.Ma'ruza o'qiydi va uni ekranda matn ko'rinishda kor'satadi va izohlaydi., mundarijani varaqlaydi. 3. Qo'shimcha axborotlarni to'liq konspektda to'ldirishni tavsiya qiladi	Eshitadilar O'z fikrlarini aytadilar Konspektlarni to'ldiradilar
III etap Xulosa (10 min)	1. Xulosa qiladilar, natijalarni umumlashtiradilar, qatnashganlarni baholaydilar, aktiv talabalarni mukofatlaydilar. 2. Uyga vazifa beradilar: MS DOS operatsion tizim haqida ikki varaq qog'ozga yozib kelish . WINDOWS operatsion tizimi, uning imkoniyatlari va kamchiliklari haqida ikki varaq qog'ozga yozib kelish.	Eshitadilar, yozadilar

TAYANCH KONSPEKT

Shaxsiy kompyuterlar – ma'lumotni qayta ishlash uchun qo'llaniladigan universal qurilmadir. Nima uchun universal deymizki, qandaydir ma'lum bir (oldindan joylashgan) funksiyani bajaradigan televizor, magnitofon, telefonga nisbatan kompyuter istalgan ko'rinishdagi axborot ustida ishlashi mumkin. (yoyinki, jadval, matn, grafiklar, rasm chizish, tayyor rasmni qo'yib, bosmaga chiqarish mumkin.)

Demak, kompyuter boshqa qurilmalar kabi oldindan belgilangan vazifalarni bajaribgina qolmay, balki turli xil vazifalarni bajarishi mumkin. Lekin bu vazifalarni kompyuter o'z-o'zidan bajara olmaydi. Kompyuter tomonidan bajariladigan barcha amallar unga yozilgan amallar ketma-ketligi u tushunadigan tilda aniq va to'liq yozilgan programma asosidagina amalga oshiriladi.

Kompyuter ichidagi dasturlarni o'zgartiribgina qolmay, balki shu kompyuterni buxgalter ish joyi, konstruktor, yoki kompozitor, yoki arxitektor ish joyini tashkil etish mumkin.

<i>O'qitish sharoiti</i>	TCO bilan ishlashga mo'ljallangan auditoriya


Etaplar, vaqt	Faoliyat tarkibi.	
	O'qituvchi	Talaba
1 etap. Kirish (10 min.)	1. Dars mavzusini, maqsadini, va rejasini ma'lum qiladilar. Talabalarga alohida vazifalar beradilar Talabalarga quyidagi savollarga javob berishni tavsiya etadilar: "Photoshop dasturida uskunalar guruhini vazifalari.Photoshop.redaktorining uskunalar palitrasi.	Eshitadilar Mavzuni kalitli tso'zlarni aytadilar Savollarni formulirovka qiladilar
2 etap. Asosiy qism (60 min.)	1.Ma'ruza rejasini bo'yicha suhbat o'tkazadilar. Ko'rgazmali qurollarni ishlatadilar. 2. Talabalarga alohida vazifa beradilar. 3. Har bir talabaga Bilaman/ Bilishni istayman/Bildim jadvalni tuzishni tavsiya qiladilar 4.Presentasiya uyushtiradilar. 5.Javoblarni eshittiradilar, korrektirovka qiladilar. 6. O'zaro baholashni uyushtiradilar.	Belgilashlar qiladilar, muhokama qiladilar, hal qiladilar, savollar beradilar. Savollar bilan chiqadilar. O'z fikrlarini bildiradilar
III etap Xulosa (10 min)	1. Xulosa qiladilar. Talabalarga o'zaro baholash natijasini e'lon qilishlarini so'raydilar. Natijalarni ko'rsatadilar. 2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradilar: Talabalar turli tasvirlar hosil qilib/ chop etib kelishi. 3. Berilgan vazifani(tasvir hosil qilish) bajarib kelish	Eshitadilar, o'zaro baholarini e'lon qiladilar Vazifani yozadilar



Uskunalar paneli tasvirlar bilan ishlashda asosiy vositadir. Uskunalar 4 guruhga birlashtirilgan. Maxsus uchburchakda sichqonchaning o'ng tugmachasi bosilsa, qo'shimcha asboblari lineyka ochiladi.

1. Birinchi guruhga ob'ektlar bilan ishlaydigan uskunalar kiradi. "Ajratish va lass" o' asboblari orqali tasvirning sohalari ajratish mumkin. "Almashtirish" – ajratilgan sohani va uning nusxasini joyini almashtirish. "Sehrli tayog'cha" – rang bo'yicha sohani avtomatik ajratish.
2. Ikkinchi guruh uskunalar rasm chizishga ishlatiladi. *Штамп* bilan rasmning yirtilib ketgan joyi yamaladi. *Палес* uskunasi esa tasvirni oyna miqyosida surish imkoniyatini beradi.. *Осветлитель/затемнитель/гибка* yorug'likning tiniqligini ifodalaydi. *Губка* – tozalash amalini bajaradi.. *Заливка, Градиент* – tasvirning ajratilgan qismiga jilo va fon berish vazifasini o'taydi.
3. Bu guruh asboblari yangi sohalarni yaratishga mo'ljallangan. *Перо* – egri chiziqli konturlarni chizish va uni taxrirlashda ishtirok etadi. *Текст* – tasvirning matnli qismini tayyorlaydi. *Линия* – kesma va to'g'ri chiziqlarni chizadi. *Пипетка* – tasvirga aniq rang tanglashda ishtirok etadi.
4. Bu guruh uskunalar tasvirni ko'rishni boshqaradi. *Масштаб* – tasvirni kattalashtirgan holatda ko'rish. *Пука* – tasvirni oyna miqyosida surish imkoniyatini beradi. *Заметка* – kommentariy qo'yish.



Uskunalar palitrasi.






Grafik dasturlari maxsus muloqat oynasiga ega bo'lib, uni palitra (jilo) deb atashadi. Bular asosiy uskunalarni sozlash, tasvirlar bilan, hattoki ularning fayllari bilan ish yuritish uchun xizmat qiladi.

Dasturda 10 ta jilo bor. Har bir palitraning o'z vazifasi bor: Palitralarga murojat menyuning Okno punkti orqali amalga oshiriladi.

- 1) Навигатор – tasvirning turli fragmentlarini tezda ko'rish va ko'rish masshtabini o'zgartirish imkonini beradi, hattoki tasvirni minatyura holatida ko'rishga ham olib keladi;
- 2) Инфо – joriy nuqtaning rang parametrlari va kursor koordinatalari haqida axborot beradi;
- 3) O'lchamlar – tanlangan uskunani nomini va navbatdagi sozlanishini ifodalaydi;
- 4) Синтез – tasvir, rangi jilosida old va orqa rejasi qiymatlarini aniqlab beradi, hamda ranglar jilosini taxrirlay oladi;
- 5) Каталог – ishlatish uchun kerak bo'ladigan barcha ranglar majmui bo'lib, undan kerak vaqtda tasvirning old va ortdan ko'rinishi jilosi rejalarini ham bajarishda ishtirok etadi;
- 6) Кист jilosi – rasm solish va uni taxrirlashda turli variantli rang jilosini ishlatadi.

Слой – tasvirning barcha qatlamlari jilosini ifodalashda asqotadi va qatlamlar jilosi parametrlari bilan ham ish yuritadi.










Yo'nalish (Каналы) – turli kanallarda ish yuritish jarayonini ranglar jilosi asosida boshqaradi va bir qancha kanaldan iborat tasvir tashkil etishni boshqaradi.

- 7) Контур – tashkil etilgan barcha konturlar ro'yxatidir;
- 10) Амаллар (Операции) – makrokomandalar tashkil etib, fayl shaklida ularni yozish, bajarish, taxrirlash, olib tashlash, saqlash mumkin..

Photoshop dasturida 9 ta punkt bor. Har bir punktlar guruhlarga bo'linadi. Filtrlar quyidagi guruhlarga biriktirilgan

- Imitasiya guruhi;
- Razmitiye guruhi;
- Zigzag filtrlari;
- Retush filtrlari;
- Yorqinlik filtrlari;
- Qat'iylik fiultlari;
- Eskiz Bo'r va ko'mir filtrlari;
- Barel'ef filtrlari;
- Tekstura filtrlari



- 1) Фаул – Открыть, Обзор, Последние документы, Редактировать Image Ready, Заккрыть, Сохранить, Печать, Просмотр, Импортировать, Экспортировать.
- 2) Редактирование – Отменить, Шаг вперуод, назад, Вырезать, Скопировать, Проверка орфографии, Поиск и Замена текста, Выполнить: заливки, обводки и др.
- 3) Изображение – Режим, Коррекция, Создать дубликат, Внешниу канал, Размеры изображения, Размер холста, Кодировать
- 4) Слоу: Новыу, Удалить слоу, Создать дубликат слоя, Параметры и Стилль слоя, Добавить и включить слоу маску
- 5) Выделение – Всуо, Отменить выделение, Выделить снова, Инвертирование, Световоу диапазон, Модификасия и др.
- 6) Просмотр – Варианты светопробы, увеличение, Уменьшение, Режим экрана и др.
- 7) Окно: Упорядочить, Рабочая область, Палитры.
- 8) Справка – har qanday yordam.
- 9) Фильтры - tasvirni o'zgartiruvchi dasturiy vosita.
Photoshopda filtrlar yordamida to'la sonli effektlar olish mumkin.

Savollar.

1. Photoshop dasturida uskunalar guruhini vazifalari.
2. Photoshop.redaktorining uskunalar palitrasi.
3. Photoshop dasturining menyusi.
4. Menyu punktlari :Фаул, Редактирование, Изображение ning vazifalari. .
5. Filtr nima va u nima uchun ishlatiladi?
6. Filtrlarning turlari..
7. Filtrlani ishlatganda nima bo'ladi?

MA'RUZA 9.	VEKTORLI GRAFIKA IMKONIYATLARI. VA ULARNING TURLARI. Corel draw PROGRAMMASI IMKONIYATLARI.
-----------------------	---

Mavzuni o'rgatish texnologiyasi.

<i>Talabalar soni : 25-50 ta.</i>	Vaqt – 2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining ko'rinishi</i>	Informatsion mavzu – amaliy mashg'ulotlarni yechish
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Vektor grafikasi bilan ishlash vositalari. 2. Vektor grafikasining asosiy tushunchasi. 3. Vektor grafika sohalarining xossalari. 4. COREL DRAW dasturi va uning oynasi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Vektorli grafikaning imkoniyatlari va ularning turlari. COREL DRAW dasturi bilan tanishish.
<i>Kalit so'zlar</i>	Chiziq, kontur, tugunlar, ksegmentli konturlar, ob'ekt, to'ldirish. .
<i>Adabiyotlar ro'yhati</i>	1. P.C. Асадуллина Информатика: Учебное пособие-Кувасай,2000. 2.Х.З.Икрамова Информатика: Учебное пособие-Ташкент,2001. 3. Х.З.Икрамова Конспект лекций по дисциплине «Информатика» -Ташкент,2000. 4. С.В.Симонович и др. Специальная информатика: Учебное пособие-Москва, 2000.
<i>O'qituvchining vazifasi:</i>	1. Vektor grafikasi bilan ishlash vositalari bilan tanishish. 2. Vektor grafikasining asosiy tushunchasini ko'rsatib berishi.. 3. Vektor grafika sohalarining xossalari tushuntirish. 4. COREL DRAW dasturi va uning oynasi bilan tanishtirishi.
<i>O'qitish faoliyatining natijalari:</i>	Vektorli grafikaning imkoniyatlari va ularning turlari. COREL DRAW dasturi bilan tanishish.
<i>O'qitishning usuli va texnikasi</i>	MA'RUZA – Bilaman, bilishni istaymay, bildim usuli
<i>O'qitish qurollari</i>	Kompyuter, tizimli dasturlar, A32 formatli qog'oz.
<i>O'qitish sharoiti</i>	Kompyuterlar joylashgan auditoriya

Ma'ruzani texnologik kartasi

Etaplar, vaqt	Faoliyat tarkibi.	
	O'qituvchi	Talaba
1 etap. Kirish (10 min.)	1. Mavzu, maqsadni, o'quv mashg'ulotning mo'ljallangan natijani va uni o'tkazish rejasini e'lon qiladi . konspektni va darsni mustahkamlash uchun vazifa tarqatadilar. 2. Vektorli grafikaning imkoniyatlari va ularning turlari. COREL DRAW dasturi bilan tanishish. 3. Savol-javob o'tkazadilar	Eshitadilar Yozadilar, Javob beradilar
2 etap. Asosiy qism (60 min.)	1. Talabalarga alohida vazifa beradilar 2. Savol-javob o'tkazadilar 3. Ko'rgazmali qurollardan, konspektidan foydalanib, ma'ruza o'qiydilar. 4. Mavzuni mustahkamlash uchun test o'tkaziladi va amaliy masalalar yechiladi.	Muhokama qiladilar, savollarga javob beradilar O'z fikrlarini aytadilar
III etap Xulosa (10 min)	1. Xulosa qiladilar, natijalarni umumlashtiradilar, qatnashganlarni baholaydilar, aktiv talabalarni mukofatlaydilar. 2. Uyga, mustaqil ishlash uchun vazifa beradilar: COREL DRAW dasturidan foydalanib, kompyuterda tasvir yaratish va qog'ozga chi1qarib kelish.	Eshitadilar yozadilar

TAYANCH KONSPEKT

Vektorli tasvirlarni yaratish uchun maxsus dasturlar mavjud bo'lib, ularni vektorli grafika muxarrirlari deb atashadi. Shunday muxarrirlar asosan nashriyot texnologiyasida va biznes reklamalari uchun xizmat qiladi. Bunday dasturlardan Adobe Illustrator(7-versiya), Macromedia Freehand (8-versiya), va Corel Draw 95,6,7,8-versiyalari) bugungi kunda keng qo'llaniladi. Ularda ish yuritish texnologiyasi ham juda o'xshash va ishlash prinsipi ham aynan bir-birinikiga mutanosib, yani ish yuritiladigan asboblari-yu, palitralari ham bajaradigan vazifalari bilan bir-birinikiga o'xshash. Shulardan kompyuter grafikasini tashkil etish sohasida eng ko'p qo'llaniladigani Adobe Illustrator, chunki uning rus tilidagi varianti ham mavjud bo'lib, va bu dastur IBM PC, Macintosh rusumli kompyuterlarda bimalol ish yurita oladi.

Vektor grafikasining asosiy tushunchalari.

1. *Chiziq* – vektor grafikasining asosiy ob'ekti hisoblanadi. *To'g'ri chiziq* esa uning xususiy holdir. Ammo ba'zi bir muharrirlarda chiziqni *kontur* deb ham atash qabul qilingan. Ma'lumki, kontur to'g'ri chiziq, sinik chiziq, egri chiziq va turli shakldagi geometrik figura ham bo'lishi mumkin.

2. *Tayanch nuqtalar*. Har bir kontur ikki va undan ortiq tayanch nuqtalarga ega bo'lishi shart. Ushbu tayanch nuqtalarni ba'zan tugun deb ham atashadi (*nodes*).

3. *Kontur segmenti* – ikki tayanch nuqta oralig'i. Bordi-yu, tayanch nuqtalar ikkidan ortiq bo'lsa, u holda bir qancha segment mavjud deyiladi. Kontur formasini o'zgartirish uchun tayanch nuqtalarini kiritish, yoki olib tashlash kerak bo'ladi.

4. *Ochiq va yopiq konturlar*. Agar konturning dastlabki tayanch nuqtasi bilan oxirigisi birlashsa, u holda yopiq kontur hisoblanadi. Agar tayanch nuqtalar bir-birini qoplamasa, u holda ochiq kontur deyiladi. Ochiq va yopiq konturlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan keskin farq qiladi. Demak, kontur – tasvirli grafikaning elementar ob'ekti bo'lib, undan yangi ob'ektlar yoki ob'ektlar guruhini yaratish mumkin. Bir qancha konturlarni gruppalar murakkab kontur yasash, konturlar to'plamini hosil qilish va turli kombinatsiyali amallar bajarish bilan qo'shma konturlar yaratish mumkin.

Yaratilgan yangi murakkab strukturali konturlar ustida ish yuritish va ularni qayta ishlash amallarini bajarish imkoniyatlari ham mavjud. Gruppalar operatsiyasi bajarilganda, har bir kontur o'zining dastlabki xususiyatini va tayanch nuqtalarini saqlab qoladi. Ammo turli kombinatsiya bo'yicha yaratilgan murakkab konturlarda esa dastlabki tayanch nuqtalar saqlanib qolgan holda yangi xususiyatga ega konturlar hosil bo'lishi mumkin. Birlashgan konturlar yaratilganda esa ob'ektlarning ham dastlabki tayanch nuqtalari, ham ularning xususiyatlari tubdan o'zgarib qoladi.

Vektor grafikasi ob'ektlarining xususiyatlari.

Ma'lumki, barcha o'rganiladigan ob'ektlar o'z xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham har bir ob'ekt o'z xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Ob'ekt xususiyatlarini o'zgarishi ob'ektning o'zgarishiga olib keladi. Endi, ana shu xususiyatlar bilan tanishib chiqamiz.

1. *Qalinlik (obvodka) parametrlari* Har qanday chiziq rasm solish va uni qayta ishlash jarayonida o'z qalinligi bilan va qanday chiziqligi bilan farqlanadi. Ushbu sanab o'tilgan omillarni qayd qiladigan parametrlari bo'ladi. Shu parametrlarni to'g'ri baholagach, konturni boshqarish mumkin bo'ladi.


2. *Rang bilan to'ldirish (zalivka) xususiyatlari*. Kontur ochiq va yopiq bo'lishi bilan bir qatorda ularni rang bilan to'ldirish jarayoni ham alohida e'tiborga molik. Ayniqsa, yopiq konturlarni rang bilan to'ldirish parametrlarini ham bilish kerak bo'ladi.

3. *Rang bilan to'ldirish parametrlari*. Kontur nima bilan to'ldirilishiga qarab parametrlar tanlab olinadi, chunki to'ldirishning bir necha turi mavjud:

- *asosiy rang bilan to'ldirish* (konturning ichki qismi tanlab olingan bir xil rang bilan to'ldiriladi);
- *gradiyentli to'ldirish* (to'ldirish parametri shaklida ikki xil rang olinadi va ular navbatma-navbat bir rangdan ikkinchisiga asta-sekinlik bilan birtarkis o'tish orqali to'ldiriladi);
- *teksturali to'ldirish* (konturning ichki qismi regulyar – birday strukturali bir xil shakl bilan to'ldiriladi)'
- *kartali to'ldirish* (konturning ichki qismi rastrlı tasvir fayli adresi bilan ifodalangan parametr bilan belgilanib to'ldiriladi).

COREL DRAW dasturi.

CorelDRAW 11 dasturi 2002 yili avgust oyida yuzaga kelgan. Dasturni ishga tushirish va tugatish standart usulda amalga oshiriladi. Dastur ishga tushirilgandan keyin *COREL DRAW* redaktorining oynasi paydo beradi. Oynaning umumiy ko'rinishi:











- 1) Строка заголовков. –sarlavha satri;
- 2) Строка меню (11 пунктов) –menyu satri;
- 3) стандартная панель инструментов - standart uskunalar paneli;
- 4) Панель свойства хусусiyatlar paneli;
- 5) Панель инструментов uskunalar paneli;
- 6) Рабочее пространство - ishchi yuza;
- 7) стандарт – standart;
- 8) Строка состояния – holat satri.

Ishchi maydonning chap qismida Corel firmasining mahsuloti bo'gan – jihozlarpaneli joylashgan . Bular, ko'pgina jihozlar paneliga nisbatan sodda bo'lib, ishchi holatni ta'minlaydi . Shuning uchun boshqalarga nisbatan juda ko'p ishlatiladi. Jihozlarni tanlash sichqonchani , kerakli jihozga olib kelib bir marta boshish bilan amalga oshiriladi.. Shundan so'ng tasvirlar ustida hamma amallar bajarila boshlaydi. Ba'zi bir tugmachalarda uchburchak shaklida belgi bor. Shu belgilarni bosgandan bir-ikki sekund o'tgandan so'ng, qo'shima amallar ko'rinadi. 1- rasmda Fill(Zalivka) tugmacha ishidagi amallar keltirilgan.



1 – rasm . Fill jihozlar panelining ichi amallari





Uskunalar paneli.

Uskunalar paneli rasm solishda asosiy vosita hisoblanadi. Ular bajaradigan vazifasiga qarab 5 guruhga bo'linadi:

- 1) Birinchi guruh ob'ektni ajratish vazifasini hal qiladigan uskunalar kiradi.: ajratish va qismam ajratish. Bunda ob'ektni to'liq yoki biror qismini ajratish mumkin bo'ladi.
- 2) Ikkinchi guruh uskunalariga ellips, to'g'riburchak, qalam, pero, qaychi va matn. Bunda qalam ixtiyoriy shakldagi konturni chizib beradi. Pero programmaning asosiy uskunasi bo'lib to'g'ri chiziqli va egri chiziqli segmentlarni chizishga xizmat qiladi. Matn esa matnli ob'ektlarni yaratishga xizmat qiladi. Qaychi – konturlarni bo'lishda asqotadi. Ellips – turli shakllar – aylana, ellips, ko'pburchak, yulduzcha, spiral kabilarni chizish vazifasini bajarsa, to'g'riburchak esa turli ko'rinishdagi to'g'ri to'rtburchaklar chizishga xizmat qiladi.
3. Bu guruh uskunolari ajratilgan ob'ektlarni manipulyasiya qilish uchun xizmat qiladi.
4. To'rtinchiguruh uskunolari diagrammalar ustuda bo'ladigan amallarni bajarish uchun xizmat qiladi.
5. Bu guruhga qo'shimcha kattaliklar bilan boshqaruvchi uskunalar kiradi.

Savollar.

1. Vektor grafikada tasvir qanday yaratiladi?
2. Vektorli grafikaning asosiy elementlari.
3. vektorli grafikada ob'ektlarning asosiy xususiyatlari.
4. COREL DRAW dastur oynasining elementlari.
5. COREL DRAW dasturidagi uskunalarining guruhlari.

MA'RUZA 10.	COREL DRAW DASTURIDA TASVIR YARATISH VA TAYYOR TASVIRLARNI TAXRIRLASH.
------------------------	---

Mavzuni o'rgatish texnologiyasi.

<i>Talabalar soni : 25-50 ta.</i>	Vaqt – 2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining ko'rinishi</i>	Informatsion mavzu – amaliy mashg'ulotlarni yechish
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Kompyuter xotirasida vektorli tasvirni ko'rsatish. 2. To'g'riburchaklarni, ellipslarni, ko'pburchaklarni va yoylarni qurish. 3. Matnlar bilan ishlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	COREL DRAW dasturida tasvir yaratish va tayyor tasvirlarni taxrirlashusullari bilan tanishtirish.
<i>Kalit so'zlar</i>	Chiziq, masshtab, to'g'riburchak, ellips, ko'pburchak, tekst, superchiziq
<i>Adabiyotlar ro'yhati</i>	1. P.C. Асадуллина Информатика: Учебное пособие-Кувасай,2000. 2. X.З.Икрамова Информатика: Учебное пособие-Ташкент,2001. 3. X.З.Икрамова Конспект лекций по дисциплине «Информатика» -Ташкент,2000. 4. С.В.Симонович и др. Специальная информатика: Учебное пособие-Москва, 2000.
<i>O'qituvchining vazifasi:</i>	• COREL DRAW dasturida tasvir yaratish va tayyor tasvirlarni taxrirlashusullari bilan tanishtirish. - To'g'riburchaklarni, ellipslarni, ko'pburchaklarni va yoylarni qurishni o'rgatishi. • Matnlar bilan ishlash tartibini ko'rsatishi.
<i>O'qitish faoliyatining natijalari:</i>	Talaba majbur: • Kompyuter xotirasida vektorli tasvirni ko'rsatib berishi. 2. To'g'riburchaklarni, ellipslarni, ko'pburchaklarni va yoylarni qurishni. • 3. Matnlar bilan ishlashni bilishi.
<i>O'qitishning usuli va texnikasi</i>	MA'RUZA – savol-javob, ma'lum qilib o'rganish, texnika, prezentasiya, insert, amaliy vazifalar,
<i>O'qitish qurollari</i>	Kompyuter, tizimli dasturlar, A32 formatli qog'oz.
<i>O'qitish sharoiti</i>	Kompyuterlar joylashgan auditoriya

Ma'ruzani texnologik kartasi


Etaplar, vaqt	Faoliyat tarkibi.	
	O'qituvchi	Talaba
1 etap. Kirish (10 min.)	1. Mavzu, maqsadni, o'quv mashg'ulotning mo'ljallangan natijani va uni o'tkazish rejasini e'lon qiladi . konspektni va darsni mustahkamlash uchun vazifa tarqatadilar. 2. COREL DRAW dasturida tasvir yaratish va tayyor tasvirlarni taxrirlash usullari bilan tanishtiradilar 3. Savol-javob o'tkazadilar	Eshitadilar Yozadilar, Javob beradilar
2 etap. Asosiy qism (60 min.)	1. Talabalarga alohida vazifa beradilar 2. Savol-javob o'tkazadilar 3. Ko'rgazmali qurollardan, konspektidan foydalanib, ma'ruza o'qiydilar. 4. Mavzuni mustahkamlash uchun amaliy masalalar yechiladi.	Muhokama qiladilar, savollarga javob beradilar O'z fikrlarini aytadilar
III etap Xulosa (10 min)	1. Xulosa qiladilar, natijalarni umumlashtiradilar, qatnashganlarni baholaydilar, aktiv talabalarni mukofatlaydilar. 2. Uyga, mustaqil ishlash uchun vazifa beradilar: Ikki varaq qog'ozga takrorlanish jarayonini ifodalovchi masalalarni yozib kelish	Eshitadila yozadilar

Tayanch konspekt.

To'g'ri burchaklarni yasash.

To'g'ri burchaklarni qurishning usullari bilan tanishib chiqamiz:

1. Yangi hujjar yarating. Buning uchun, ixtiyoriy o'lchamdagi qog'ozni olamiz.
2. Rectanchaptere (To'g'riburchak) uskunasida sichqoncha bosiladi. Bundan keyin ekranda to'rtburchakli (X) ko'rinishni oladi. (1-rasm) .



Rasm. 1

3. To'g'riburchakni qurish uchun , Rectanchaptere (To'g'riburchak) uskunasi yaratilayotgan ob'ekt diagonali bo'yicha joylashtiriladi. Sichqonsha tugmachasi olingandan keyin, markerlar oralig'ida to'g'riburchak shakli hosil bo'ladi. 8 ta markerdan iborat bo'lgan bo'lak ramka deyiladi. Ramka o'rtasida (X) ko'rinishidagi marker joylashgan. Oraliq ramka elementlari ob'ektlarni o'zgartirish uchun kerak bo'ladi.

Ellips yasash.

CorelDRAW da ellips , bu diametr bo'yicha yonga cho'zilgan aylanadir. Biz to'g'ri to'rtburchakni chizishni o'rgangan holda, ellipsni chizish anchagina yengil bo'ladi.

Geometriyada ellipsning o'lchami uning yarim o'qi yordamida aniqlanadi, CorelDRAW da ulkan to'g'rito'rtburchaklar orqali aniqlanadi




Rasm. 2. Ellips, belgilangan ramka, Ellips jihozining ko'rsatkichi. Ellipsni qurish yo'llari va ularni taxrirlash bilan tanishamiz.

1 – MASHQ: Ulkan chiziqlarni chizish.

Bu mashqni bajarish jarayonida, chiziq chizish yo'llarini takrorlaymiz va “кисти” rejimi misolida superchiziqlar bilan ishlashni o'rganamiz.

1. Ochilgan CorelDRAW hujjatiga yangi sahifa qo'ying va chiziq yasash yo'llaridan foydalanib, ilonning yuqoridan ko'ringan tasvirini tuzing (rasm 3, yuqoridan). Avval yopiq chiziq chizing. Agar chizilgan chiziqlar noto'g'ri bo'lsa, uni to'g'rilash mumkin.



Rasm. 3. Yangi mazkani aniqlash va uni superchiziq chizishda ishlatish.

2. Endi, ilon tasvirining hamma asosiy qismlarini belgilash kerak. Buni jihozi Pick (tanlash) yordamida oson amalga oshirish mumkin: uni olib katta sahifaning bo'sh joyida bosiladi. Bu bilan ajratishni bekor qilinadi. Keyin jihozni ilon tasvirini o'z ichiga olgan to'rtburchakning diagonal bo'yicha olib o'tamiz. Tugmacha qo'yib yuborilgandan keyin, hamma belgilangan soha to'rtburchak ichida paydo bo'ladi.


3. Jihozlar panelidan Artistic Media (Superlinii) jihozini oling va “кисти” rejimini yoqing. So'ng disket tasvirli tugmachani bosing va faylga nom berib, saqlang, masalan zmejuka.cmx. Shundan so'ng “OK” tugmachasini bosing.

4. Belgilangan ilon tasvirini Esc tugmachasi yordamida yo'qating. Artistic Media jihoz ko'rsatkichini chapdan o'nga to'lqinsimon trayektoriya bo'yicha olib o'ting.

5. Ilonni dumoloq shaklga keltirish uchun, Spiral (Спираль) jihozi yordamida 2-3 qatlamli logarifmik spiral yasang.

Sachratish rejimi.

Bu rejimda Artistic Media jihozi bitta emas, balki bir nechta sohalar bilan ishlaydi. Bir necha sohalar birlashmasidan iborat ikki tasvir 4-rasmda keltirilgan..



Rasm 4. Sachratish rejimida qurilgan superchiziqlar.

Ko'chirib o'tish oynasi Artistic Media .

Superchiziqlarni chizish uchun ko'chirib o'tish oynasidan (rasm 5) foydalanamiz. Uni tasvirlash uchun Window > Dockers > Artistic Media (Окно > Пристыкоаемыеокна > Суперлиния) buyrug'ini bering. .



Rasm 5. Ko'chirib o'tish Artistic Media oynasi va uning elementlari.

Oddiy matnlar bilan ishlash.

Misol tariqasida oddiy matnlar bilan ishlashni keltiramiz.. Taxminiy menyu maketini , ya'ni taxminiy kafeni yaratamiz. Maket ko'rinishi 6-rasmda keltirilgan. Bu jarayon etapma-etap bajariladi.

1. CorelDRAW Ochilgan hujjatda yangi sahifa yaratamiz. Text jihozini olamiz. (Текст), sahifaning yuqori qismida oddiy matn bo'lagini tuzing va Edit Text (matnni tahrirlash) oynasiga o'tamiz.

2. Ixtiyoriy simvolni olib, matnni yozing . Oxirida dialogli Edit Text oynasini berkitamiz.



Rasm 6. Menyu maketi.

Savollar.

1. Vektorli grafikada tasvir qanday yaratiladi?
2. COREL DRAW menyusi nechta punkdan iborat?
3. To'g'riburchakni va ellips yaratish jarayoni.
4. COREL DRAW da matnlar bilan ishlash.
5. COREL DRAW da qanday vazifalar bajarish mumkin.

MA'RUZA 11	WINDOWS MUHITIDA MATN MUHARRIRI. MICROSOFT WORD HUJJAT TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI. WORD ART IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH. WORDDA JADVALLAR TASHKIL QILISH USULLARI.
-------------------	--

Mavzuni o'rgatish texnologiyasi.

<i>Talabalar soni : 25-50 ta.</i>	Vaqt – 2 soat
<i>O'quv mashg. ko'rinishi</i>	Informatsion mavzu – Bildim, bilaman, bilishni istayman
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. WORD programmasi imkoniyatlari bilan tanishish. 2. WORD programmasida matnlar bilan ishlash imkoniyatlarini o'rganish. 3. WORD programmasi imkoniyatlari bilan tanishish. 4. WORD programmasi yordamida jadvallar yaratish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	WORD programmasi imkoniyatlari bilan tanishish, matnlar bilan ishlash imkoniyatlarini o'rganish va WORD programmasi yordamida jadvallar yaratish,
<i>Kalit so'zlar</i>	ВИД, ОКНО, СПРАВКА, ФОРМАТ, WORD ART, ФАЙЛ va boshqalar.
<i>Adabiyotlar ro'yhati</i>	1. Р.С. Асадуллина Информатика: Учебное пособие-Кувасай, 2000. 2. Х.З. Икрамова Информатика: Учебное пособие-Ташкент, 2001. 3. Х.З. Икрамова Конспект лекций по дисциплине «Информатика» - Ташкент, 2000. 4. С.В. Симонович и др. Специальная информатика: Учебное пособие-Москва, 2000.
<i>O'qituvchining vazifasi:</i>	WORD programmasining hamma imkoniyatlari bilan tanishishtirish
<i>O'qitish faoliyatining natijalari:</i>	Talaba majbur: 1. WORD programmasini ishga tushirishni, matnlar bilan ishlashni, rasmlar bilan ishlashni o'rganishi
<i>O'qitishning usuli va texnikasi</i>	MA'RUZA – savol-javob, ma'lum qilib o'rganish, texnika, prezentasiya, insert, amaliy vazifalar,
<i>O'qitish qurollari</i>	Kompyuter, tizimli dasturlar, A32 formatli qog'oz.
<i>O'qitish sharoiti</i>	Kompyuterlar joylashgan auditoriya

Ma'ruzani texnologik kartasi

Etaplar, vaqt	Faoliyat tarkibi.	
	O'qituvchi	Talaba
1 etap. Kirish (10 min.)	1.Mavzu, maqsadni, o'quv mashg'ulotning mo'ljallangan natijani va uni o'tkazish rejasini e'lon qiladi . konspektni va darsni mustahkamlash uchun vazifa tarqatadilar. 2. WORD programmasi bilan ishlashni tushuntirish va barcha imkoniyatlari bilan tanishtiriladi. 3. Savol-javob o'tkazadilar	Eshitadilar Yozadilar, Javob beradilar
2 etap. Asosiy qism (60 min.)	1.Talabalarga alohida vazifa beradilar 2. Savol-javob o'tkazadilar 3.Ko'rgazmali qurollardan, konspektidan foydalanib, ma'ruza o'qiydilar.	Muhokama qiladilar, savollarga javob berdilar. O'z fikrlarini aytadilar
III etap Xulosa (10 min)	1. Xulosa qiladilar, natijalarni umumlashtiradilar, qatnashganlarni baholaydilar, aktiv talabalarni mukofatlaydilar. 2. Uyga, mustaqil ishlash uchun vazifa beradilar:o'tilgan mavzuga tegishli savollarga javob yozib kelish.	Eshitadila yozadilar

Tayanch konspekt.

A. MATN MUHARRIRI MICROSOFT WORD IMKONIYATLARI.

WORD-Windowsning amaliy programmalaridan hisoblanib, matnli hujjatlarni tuzish, ko'zdan kechirish, tahrir qilish va chop etish uchun xizmat qiladi.

WORD- yordamida ixtiyoriy ko'rinishdagi hujjatni juda tez va yuqori sifatli tayorlash mumkin. Programmaning yana bir qulaylik tomoni shundan iboratki, unda bir nechta hujjatlar bilan ishlash, ya'ni ularni qo'shish, biridan ikkinchisiga kerakli joyni olib ko'chirich, matn yoniga tasvir tushirish, harflarni istalgan shaklda yetarlicha katta o'lchamda chop etish mumkin.

Shunga qaramasdan, **WORD** ham ayrim «kamchiliklar» dan xoli emas. Masalan, matematik ifodalar va kimyoviy formulalarni kiritishda katta qiyinchiliklar mavjud. Bundan tashqari juda murakkab tarkibli poligrafik

(atlaslar, albomlar, jurnal muqovalari) mahsulotlarni tayorlashda foydalanish o'ng'ay emas.

Word ni ishga tushirish quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:



1. Windows ishchi stolida tugmasini sichqoncha orqali ikki marta bosgan holda.
2. ПУСК – Программы – Microsoft Word

3. Tez ishga tushirish paneli orqali  tugmasini sichqonchani bir marta bosgan holda
4. Program Files – Microsoft Office – Microsoft Word

Programmadan chiqish quyidagi ixtiyoriy yo'llar orqali amalga oshiriladi:

1. Sistemali menyu – Закрыть


2.  tugmasi orqali

3. Файл – Закрыть

4. Alt + F4

Word ni ishga tushirgandan so'ng, uning oynasi ekranga chiqadi. Oyna elementlari quyidagilardan iborat:


1. sarlavha satri;
2. menyu satri (9 ta bo'lim);
3. Standart asboblari paneli;
4. Formatlash asboblari paneli;
5. Gorizontali va vertikal lineykalari;
6. Gorizontali va vertikal o'tkazgich chiziqlari;
7. Ishchi maydon;
8. Rasm solish asboblari paneli;
9. Holat satri.




Bu standart ko'rinishdan tashqari **Вид** bo'limi orqali oyna ko'rinishini, boshqa kerakli asboblar panelini ishga tushirish, mashtabni o'zgartirish, kolontitul qo'yish va h.k. ishlarni amalga oshirish mumkin. Menyuning **Файл** bo'limi orqali yangi fayl, mavjud faylni ochish, saqlash, yuborish, bosmaga berish, yopish va h.k. larni amalga oshirish mumkin. **Справка** bo'limi orqali esa sizga kerak bo'ladigan ma'lumotni rus tilida olishingiz mumkin.

B. WORD PROGRAMMASIDA MATNLAR BILAN ISHLASH IMKONIYATLARI.

Word programmasining matnlar bilan ishlash imkoniyati turli-tumandir. Buning uchun maxsus menyuning **ФОРМАТ** bo'limi buyruqlarini va formatlash asboblar paneli (панель инструментов форматирования) dan foydalanish mumkin. **ФОРМАТ** bo'limi quyidagi buyruqlarini o'z ichiga oladi:




Formatlash asboblar paneli orqali asosan shriftlar bilan ishlanadi va matnlar turgan o'rinni o'zgartirish mumkin.



WordArt tayyor yozuvlarning 30 hil kolleksiyasidir. Bu, matnni chiroyli, ajralib, ko'rsatib turishga xizmat qiladi. WordArt imkoniyatidan foydalanishingiz uchun  tugmasini bosasiz va ekranga chiqqan kolleksiyalardan birini tanlab OK tugmasini bosasiz.



Ekranga chiqqan muloqot oynaga kerakli matnni terasiz, shriftlarini o'zgartirasiz va OK tugmasini bosasiz.




Tayyor bo'lgan matnni quyida keltirilgan asboblari paneli orqali imkoniyatlarini o'zgartirish mumkin.



C. MICROSOFT WORDNING GRAFIK IMKONIYATLARI. FORMULALAR BILAN ISHLASH.

Microsoft Wordning grafik imkoniyatlari rang-barangdir. Menyuning Вставка → Рисунок bo'limi orqali quyidagi imkoniyatlardan foydalanishimiz mumkin.




Yoki standart asboblari panelidagi  tugmachasi orqali Рисование panelini ishga tushirib, bu erdagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish mumkin.



Microsoft Wordning yana bir chiroyli imkoniyatlaridan biri, bu matematik ifodalarni yozish imkoniyatidir. Matematik ifodalarni yozish uchun maxsus ilova – Microsoft Equation dan foydalaniladi. Uni ishga tushirish uchun quyidagi ketma-ketlikni bajaramiz:

Вставка → Объект. Ekranda programmalar ro'yxati - OLE serverlar paydo bo'ladi. Bu ro'yxat ichidan Microsoft Equationni belgilaymiz, OK ni bosamiz. Shundan so'ng ekranda quyidagi oyna paydo bo'ladi:




Bu oyna orqali bizga kerakli ma'lumotni belgilaymiz va uni to'ldiramiz.

D. MICROSOFT WORDDA JADVALLAR USTIDA ISHLASH IMKONIYATLARI.


Microsoft Wordda jadval yaratish usullari bir qancha:

1. Jadvalni asboblar paneli orqali chizish («Нарисовать таблицу»);
2. Qator va ustun elementlarini ko'rsatgan holda jadval qo'yish («Вставить таблицу»);
3. Matnli axborotni jadvalga o'tkazish («Преобразовать текст в таблицу»).

Buning uchun menyuning Таблица bo'limini ishga tushirish kifoya. Таблица bo'limi quyidagi buyruqlardan iborat:



Нарисовать таблицу buyrug'ini tanlasak quyidagi asboblar paneli ekranga chiqadi:



Bu buyruqlar orqali qalam bilan chizish, o'chirish, chiziqlar qalinligini va turlarini o'zgartirish, chegaralar rangini, fonini o'zgartirish, kataklar bilan bo'ladigan har hil buyruqlar, jadval ichidagi axborot bilan ishlash imkoniyati mavjuddir.

Nazorat savollari

1. Wordda jadval yaratish jarayoni haqida gapirib bering.
2. Avtoformat nima?
3. Matnni jadval ko'rinishiga keltirish qanday amalga oshiriladi?
4. Word matn muharririning qanday imkoniyatlari mavjud?
5. Menyuning Файл va . Вид bo'limi imkoniyatlari.
6. Колонтитул nima?
7. Asboblar paneli haqida gapirib o'ting?
8. Шрифт buyrug'i orqali nimalarni amalga oshirishimiz mumkin?
9. Автотекст nima?
10. Formatlash asboblar paneli qanday elementlarga ega?
11. Yonib-o'chib turadigan matnni qanday hosil qilish mumkin?
12. Символ, примечание, колонки lar qanday qo'yiladi.
13. Регистр nima uchun hizmat qiladi?
14. WordArt nima? WordArt imkoniyatidan foydalanish qanday amalga oshiriladi?
15. Word qanday grafik imkoniyatlarga ega? Автофигура orqali qanday rasmlarni qo'yish mumkin?
16. Qo'yilgan rasmlarni ikoniyatlarini o'zgartirish usullarini gapirib o'ting.
17. Formuladan foydalanishimiz uchun, uni qanday ishga tushiramiz?
18. Qanday formulalardan foydalanamiz?

Ma'ruza 12	MICROSOFT WORD PROGRAMMASI YORDAMIDA ELEKTRON HUJJAT YARATISH. POWER POINT PROGRAMMASI BILAN TANISHISH. SLAYDLAR USTIDA ISHLASH IMKONIYATLARI.
-------------------	---

Mavzuni o'rgatish texnologiyasi.

<i>Talabalar soni : 25-50 ta.</i>	Vaqt – 2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining ko'rinishi</i>	Informatsion mavzu – Bildim, bilaman, bilishni istayman
<i>Ma'ruza rejasi</i>	Elektron hujjat yaratish imkoniyatlarini o'rganish. POWER POINT dasturida haqida qisqacha ma'lumotlar va amaliy ko'nikmalar POWER POINT DASTURIDA TAQDLIMOTLAR YARATISH POWER POINT dasturida namoyish materiali namoyishini boshlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Elektron hujjat yaratish imkoniyatlarini o'rganish. POWER POINT dasturida haqida qisqacha ma'lumotlar va amaliy ko'nikmalar POWER POINT DASTURIDA TAQDLIMOTLAR YARATISH POWER POINT dasturida namoyish materiali namoyishini boshlash.
<i>Kalit so'zlar</i>	ВИД, ОКНО, СПРАВКА, ФОРМАТ, ФАЙЛ, POWER POINT va boshqalar.
<i>Adabiyotlar ro'yhati</i>	1. P.C. Асадуллина Информатика: Учебное пособие-Кувасай,2000. 2. X.3.Икрамова Информатика: Учебное пособие-Ташкент,2001. 3. X.3.Икрамова Конспект лекций по дисциплине «Информатика» -Ташкент,2000. 4. С.В.Симонович и др. Специальная информатика: Учебное пособие-Москва, 2000
<i>O'qituvchining vazifasi:</i>	POWER POINT programmasining hamma imkoniyatlari bilan tanishishtirish . Elektron hujjat yaratish imkoniyatlarini o'rgatish.
<i>O'qitish faoliyatining natijalari:</i>	Talaba majbur: POWER POINT programmasining hamma imkoniyatlari bilan tanishishtirish . Elektron hujjat yaratish imkoniyatlarini o'rgatish.
<i>O'qitishning usuli va texnikasi</i>	MA'RUZA – savol-javob, ma'lum qilib o'rganish, texnika, prezentasiya, insert, amaliy vazifalar,
<i>O'qitish qurollari</i>	Kompyuter, tizimli dasturlar, A32 formatli qog'oz.
<i>O'qitish sharoiti</i>	Kompyuterlar joylashgan auditoriya

Ma'ruzani texnologik kartasi

Etaplar, vaqt	Faoliyat tarkibi.	
	O'qituvchi	Talaba
1 etap. Kirish (10 min.)	1.Mavzu, maqsadni, o'quv mashg'ulotning mo'ljallangan natijani va uni o'tkazish rejasini e'lon qiladi . konspektni va darsni mustahkamlash uchun vazifa tarqatadilar. 2. POWER POINT programmasi bilan ishlashni tushuntirish va barcha imkoniyatlari bilan tanishtiriladi. 3. Savol-javob o'tkazadilar	Eshitadilar Yozadilar, Javob beradilar
2 etap. Asosiy qism (60 min.)	1.Talabalarga alohida vazifa beradilar 2. Savol-javob o'tkazadilar 3.Ko'rgazmali qurollardan, konspektidan foydalanib, ma'ruza o'qiydilar.	Muhokama qiladilar, savollarga javob beradilar O'z fikrlarini aytadilar
III etap Xulosa (10 min)	1. Xulosa qiladilar, natijalarni umumlashtiradilar, qatnashganlarni baholaydilar, aktiv talabalarni mukofatlaydilar. 2. Uyga, mustaqil ishlash uchun vazifa beradilar:o'tilgan mavzuga tegishli savollarga javob yozib kelish.	Eshitadila yozadilar

Tayanch konspekt.

A. MICROSOFT WORD PROGRAMMASI YORDAMIDA ELEKTRON HUJJAT YARATISH.

Elektron hujjat yaratishimizdan oldin gipermurojaat, gipermatn, zakladka nima ekanligini aniqlab olaylik.

WWW (Web) tizimida ma'lumotlar *gipermatnli* hujjatlar shaklida olinadi. Gipermatn boshqa matnli hujjatlarga yo'l ko'rsatuvchi matndir. Bu esa boshqa matnlarga tezda o'tish imkonini beradi (bu matnlar qaysi mamlakatning serverida turishidan qat'iy nazar) Bu o'rinda aytib o'tish joizdirki, matnlar o'rinda rangli harakatdagi tasvirlarni, turli videokliplarni, grafik, audiolarga ham murojaat tashkil qilsa bo'lar ekan. Matndan tashqari boshqa shakldagi ma'lumotlarni ham beruvchi hujjatlar *gipermedia hujjatlari* deyiladi.

Matnlarda *kalit so'zlar* deb ataluvchi so'zlar orqali dunyoning ixtiyoriy burchagida INTERNET doirasida joylashgan ma'lumotlarga yoki kompyuterdagi mavjud fayllarga, yoki fayl ichidagi o'zaro murojaat qilish va u orqali ma'lumotlarni topish *gipermurojaat* deb ataladi.


Ajratilgan so'zlar va frazalar – gipermatn aloqalari, qisqacha giperaloqalar deb yuritiladi. Bu giperaloqalar orqali boshqa hujjatlarga murojaat qilib, unda yangi giperaloqalarni yaratish mumkin. *Zakladka* (“taxlash”, “joylashtirish” ma’nosini anglatadi) – matnning, jadvalning, rasmning qandaydir qismiga nomlangan ko'rsatkich yoki hujjat ichidagi o'rni.

Demak, gipermurojaatlarni asosiy vazifasi sizga kerakli bo'lgan axborotlarni tez topishdir.


Gipermurojaatni ishga tushirish yo'llari quyidagicha:

1. Menyuning Вставка → Гиперссылка buyrug'i;
2. Standart asboblar paneli →  Гиперссылка tugmasi;
3. Konteksli menyu →  Гиперссылка buyrug'i.

Gipermurojaat orqali axborotimizni fayl, veb-sahifa bilan, hujjat ichidagi belgilangan joy bilan, yangi hujjat bilan, elektron quti bilan bog'lashimiz mumkin.



Yuqoridagi bog'lanishlardan murakkabrog'i hujjat ichidagi belgilangan joy bilan bog'lanishdir. Bunda bog'lanish yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga bo'ladi. Bog'lanishlar strukturasi quyidagi oynada ko'rib turibsiz.



B. POWER POINT DASTURIDA TAQDLIMOTLAR YARATISH.


POWER POINT dasturi universal, imkoniyatlari keng bo'lgan, ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradiva matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, vidiorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Слайд- ма'lum bir o'lchamga ega bo'lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.


Slaydlar ketma-ketligidan iborat tayyor ko'rgazmani kompyuter ekranida, vidiomonitorida, katta ekranda namoyish qilish mumkin. Ko'rgazmani tashkil qilish-slaydlar ketma-ketligini loyihalash va jihozlash mumkin.

POWER POINT dasturi MICROSOFT firmasining WINDOWS qobig'i ostida yatilgan bo'lib, ushbu dastur prezentatsiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biridir. Dasturdagi asosiy tushunchalar bu **-slayd va prezentatsiya** tushunchalaridir **POWER POINT dasturini ishga tushurish.** Bu dasturni ishga tushirishni WINDOWS ish stolidan boshlash zarur. Ish stolidagi quyidagi buyruqlarni bajarish orqali dastur ishga tushiriladi:

«Пуск» ----«Программи» ----- «Microsoft POWER POINT»




POWER POINT ishga tushirilganda taqdimot yaratish muloqot darchasini ko'rish mumkin.



- **“Мастер автосодержания”**(Avtomundarija ustasi) – ma’ruzachi ismi,familiyasi, mavsu nomi, taqdimot turi,uslubu,rangli chizmasini kirinib,bir necha slayddan iborat bo’lgan tayyor taqdimotni chiqaradi.
- **“Шаблон презентация”**(Taqdimot qoliblari) – taqdimotni jihozlash turini tanlash va ularnu ish olib boorish imkonini beradi.
- **“РПустую презентацию”**(Bo’sh taqdimotni) – mustaqil ravishda taqdimot tuzish imkonini beradi.
- **“Открыть презентацию”**(Taqdimotlarni ochish) – kompyuter xonirasida va diskda mavjud bo’lgan ko’rgazmali fayllarni ochish.


C. POWER POINT dasturida namoyish materiali namoyishini boshlash. .

Namoyish materiallari tayyor bo’lgandan keyin uning namoyishini boshlash uchun **Показ слайдов** bo’limidan Nachat pokaz bo’limini tanlash yoki klaviaturadan F5 tugmasini bosish lozim. Bunda namoyish materiali namoyishi har doim birinchi tartib raqamli slayddan boshlanadi.namoyish materiallari namoyishini boshqa tartib raqamli slayllan boshlash uchun kerakli slayd tanlab olinib POWER POINT darchasining chap pastki burchagidagi (**Показ слайдов с текущего**) tugmasi yoki SHIFT+F5 (bir vaqtda) tugmalari bosiladi.



Namoyish materiallari namoyishi boshlangandan keyin slaydlar ko’rinishi to’liq ekranni qoplagan holda asboblari paneli va boshqa tugmalar ko’rinmay qoladi. Slayd,ob’ekt va matnlarga tadbqiq etilgan effektlar ketma-ketligi bo’yicha amalga oshiriladi.Bunda keyingi slaydga yoki effektga o’tish uchun klaviaturadan ENTER yoki SPACE (probel) tugmalari bosiladi. Bitta slayd yoki effekt orqaga qaytish uchun BACKSPACE tugmasini bocish kerak.

Namoyish materiallari namoyishi ko'rinishidan chiqish uchun ESC tugmasi yoki sichqonchaning o'ng tugmasi bosiladi va darcha hosil bo'lgachdan keyin Zavershit pokaz slaydov bo'limi tanlanadi. Namoyish materiallari bajarish jarayoni davomida qo'shimcha ma'lumotlar yozish, ma'lumotlarni belgilab olishni, sichqoncha o'ng tugmasini bosilganda hosil bo'ladigan darcha yordamida amalga oshirish mumkin. Sichqoncha o'ng tugmachasi bosilganda hosil bo'lgan darchadan **Указатель** bo'limi tanlanadi. Bu bo'limda **Ручка** yoki **Фломастер** lardan foydalaniladi. Ikkinchi marta sichqoncha o'ng tugmachasi bosiladi va **Указатель** bolimidan **Выделение** tanlanib, **Цвет чернил** yordamida rang o'rnatiladi.



Nazorat savollari

1. Quyidagi tushunchalarga ta'rif bering: gipermurojaat, gipermatn, zakladka.
2. Gipermurojaatni ishga tushirish yo'llarini aytib bering?
3. Gipermurojaatni qanday hujjatlar bilan amalga oshirish mumkin?
4. Tashqi gipermurojaat qanday amalga oshiriladi?
5. POWER POINT dasturini yuklash.
6. POWER POINT dasturining necha xil ish rejimi bor, ularning har birini tavsiflab bering.
7. Taqdimot yaratish qanday amalga oshiriladi.
8. Yaranilgan taqdimotlarni saqlash qanday bajariladi.
9. Taqdimotlarni tahrirlash qahday amalga oshiriladi.
10. Yangi slayd qanday yaratiladi.
11. Slaydlarni bezash ishlarini amalga oshirishda qaysi tugmachalardan foydalanamiz.
12. Slaydga matn kirinishni tavsiflab bering
13. Taqdimotga rasm qo'yish yoki rasmni boshqa taqdimotdan olib qo'yish.
14. Bir slayddan ikkinchi slaydga o'tishning usullarini tushuntitihg.
15. Avtomatik ravishda slaydlarni almashtirish uchun nima qilish kerak.
16. Taqdimotga jadvallar qo'yish qanday amalga oshiriladi.
17. Struktura rejimida qanday ishlarni bajarish mumkin.
18. Diagrammalar qo'ysh jarayonini aytib o'ting.
19. Slaydlarning rangli chizmasi orqali fon va matn ranglarini o'zgartiring.
20. POWER POINT dasturida rasm chizish qanday amalga oshiriladi.

Ma'ruza 13.	POWER POINT dasturida animatsiya effektlaridan foydalanish.
<i>Talabalar soni : 25-50 ta.</i>	Vaqt – 2 soat
<i>O'quv mashg'ulotining ko'rinishi</i>	Informatsion mavzu – Bildim, bilaman, bilishni istayman
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Animatsion effektlardan qanday va qayrda foydalaniladi. 2. Matnli slaydlar animatsiyasi nima vazifani bajaradi. 3. Animatsiya parametrlari qanday o'rnatiladi. 4. Animatsion effektlarda ishlash uchun qanday ishlar bajariladi. 5. POWER POINT diagrammalari bilan ishlash slaydlarini yaratish. 6. Boshqa taqdimotlarga slayd diagrammalarini qanday ko'chiriladi
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	1. Animatsion effektlardan foydalanish. 2. Matnli slaydlar animatsiyasi vazifasini o'rganish. 3. Animatsiya parametrlarining o'rnatishni, animatsion effektlarda ishlash. 5. POWER POINT diagrammalari bilan ishlash slaydlarini yaratish. 6. Boshqa taqdimotlarga slayd diagrammalarini ko'chirish.
<i>Kalit so'zlar</i>	ВИД, ОКНО, СПРАВКА, ФОРМАТ, ФАЙЛ, POWER POINT va boshqalar.
<i>Adabiyotlar ro'yhati</i>	1. P.C. Асадуллина Информатика: Учебное пособие-Кувасай, 2000. 2. X.3. Икрамова Информатика: Учебное пособие-Ташкент, 2001. 3. X.3. Икрамова Конспект лекций по дисциплине «Информатика» - Ташкент, 2000. 4. С.В. Симонович и др. Специальная информатика: Учебное пособие-Москва, 2000
<i>O'qituvchining vazifasi:</i>	Animatsion effektlardan foydalanishni, matnli slaydlar animatsiyasi vazifasini o'rgatish, animatsiya parametrlarining o'rnatishni, animatsion effektlarda ishlashni tushuntirish, POWER POINT diagrammalari bilan ishlash slaydlarini yaratishni, boshqa taqdimotlarga slayd diagrammalarini ko'chirishni tushuntirish.
<i>O'qitish faoliyatining natijalari:</i>	Talaba majbur: 1. Animatsion effektlardan foydalanishni, 2. Matnli slaydlar animatsiyasi vazifasini o'rganish. 3. Animatsiya parametrlarining o'rnatishni, animatsion effektlarda ishlash. 5. POWER POINT diagrammalari bilan ishlash slaydlarini yaratish. 6. Boshqa taqdimotlarga slayd diagrammalarini ko'chirish.
<i>O'qitishning usuli va texnikasi</i>	MA'RUZA – savol-javob, ma'lum qilib o'rganish, texnika, prezentasiya, insert, amaliy vazifalar,
<i>O'qitish qurollari</i>	Kompyuter, tizimli dasturlar, A32 formatli qog'oz.
<i>O'qitish sharoiti</i>	Kompyuterlar joylashgan auditoriya


Ma'ruzani texnologik kartasi

Etaplar, vaqt	Faoliyat tarkibi.	
	O'qituvchi	Talaba
1 etap. Kirish (10 min.)	1. Mavzu, maqsadni, o'quv mashg'ulotning mo'ljallangan natijani va uni o'tkazish rejasini e'lon qiladi. konspekti va darsni mustahkamlash uchun vazifa tarqatadilar. 2. Animatsion effektlardan foydalanishni, matnli slaydlar animatsiyasi vazifasini o'rgatishni, animatsiya parametrlarini o'rnatishni, animatsion effektlarda ishlashni, POWER POINT diagrammalari bilan ishlashni,	Eshitadilar Yozadilar, Javob beradilar

	slaydlarini yaratishni, boshqa taqdimotlarga slayd diagramm ko'chirishni tushuntiriladi.. 3. Savol-javob o'tkazadilar	
2 etap. Asosiy qism (60 min.)	1.Talabalarga alohida vazifa beradilar 2. Savol-javob o'tkazadilar 3.Ko'rgazmali qurollardan, konspektidan foydalanib, ma'ruza o'qiydilar.	Muhokama qiladilar, savollarga javob beradilar O'z fikrlarini aytadilar
